

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SHAHNISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Allayarova Zebiniso Boymuratovna

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA
INTENSIFIKATORLAR TIPOLOGIYASI**

Monografiya

TOSHKENT

“MAKON SAVDO PRINT” MCHJ – 2024

UDK 811.111/811.512.133
KBK 81.2

Mas'ul muharrir:

B.R. Mengliyev - filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

A.M.Muhammadiyev - filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Z.R.Yaxshiyeva – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori doktori (PhD), dotsent

Z.B. Allayarova // “Ingliz va o'zbek tillarida intensifikatorlar tipologiyasi”. Monografiya. T.: “MAKON SAVDO PRINT” MCHJ, 2024 – 96 b.

Zamonaviy o'zbek ilmiy nitqi o'zbek adabiy tilining mustaqil funksional uslubi sifatida rivojlanmoqda va bu jarayon adabiy til taraqqiyoti bilan uyg'un ravishda kechmoqda. Shu jihatdan, milliy adabiy til va uning turli qatlamlarni ilmiy o'rganish va tahlil qilish masalasiga katta ahamiyat berilmoqda. Milliy adabiy tilni o'ziga xos mental tizim sifatida o'rganish va tahlil qilish masalasiga katta ahamiyat berilmoqda. Milliy adabiy tilni o'ziga xos mental tizim sifatida o'rganish o'zbek tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Intensifikatorlarning semantik xususiyatlari va hissiy ta'siriy so'zlar o'rtasida ma'lum o'xshashliklar mavjud bo'lsa-da, intensifikatorlar o'zining sintaktik tuzilishi, nutqdagi faol ishlatilishi va leksik o'ziga xosligi bilan hissiy ta'siriy so'zlardan farqlanadi va ulardan ustunroq mavqega ega. Shu sababli, intensifikatorlar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini chuqurroq ilmiy o'rganish zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur monografiya ingliz va o'zbek tillaridagi intensifikatorlarning semantik tomonlari hamda hissiy ta'siriy so'zlar bilan o'xshash va farqli jihatlarini qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, yuqorida qayd etilgan masalalarni yoritishda yordam beradi. Shu bilan birga, monografiya xorijiy til va adabiyoti, o'zbek tili yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun “Chet tili va ona tili qiyosiy tipologiyasi” va “Tilshunoslik” fanlarini o'qitishda muhim ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi.

© **Z.B. Allayarova, 2024**

© “MAKON SAVDO PRINT” MCHJ, 2024

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan til siyosati erishilgan yutuqlar va ma'lum kamchiliklari bilan birga O'zbekiston lingvistik manzarasining murakkab manzarasini ko'rsatadi. Bu ikki tillilik va ko'p tillilik hodisalarini o'z ichiga oladi, ular ham bizning til voqeligimizning hal qiluvchi jihatlari hisoblanadi. Qolaversa, alifboni isloh qilish va til me'yorlarini zamon talablari bilan uyg'unlashtirish endi kechiktirib bo'lmaydigan muhim vazifalarga aylandi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi yillarda mamlakatda til siyosatini o'rganish va rivojlantirishga katta sa'y-harakatlar qaratildi. Bu turli til hodisalari bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar, turli til siyosati modellarini tekshirish va ikki tillilik va ko'p tillilikni tekshirishni o'z ichiga oladi.

Tilshunoslik ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida "Davlat tilining mavqei va nufuzini oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, shu bilan birga bu boradagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish" kabi muhim ma'suliyatni o'z zimmasiga oladi. Davlat tili maqomini yuksaltirish (manba: www.khabar.uz). Bu esa o'zbek tilining rivojlanish modellari ustida jiddiy izlanishlar olib borish zarurligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turli yillardagi Farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari mamlakatda til siyosatini rivojlantirish va oliy ta'lim tizimini takomillashtirishda munim ahamiyatga ega bo'ldi. Jumladan, 2016 yil 13 maydagi PF-4997-sonli "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risidagi"gi farmon va 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi

farmonlar mamlakatning ilmiy va ta'lim tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, 2017 yil 17 fevralda qabul qilingan PQ-2789-sonli «Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish» haqidagi qaror va 2017 yil 16 fevraldagi PF-4958-sonli «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini takomillashtirish» farmoni ilmiy tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirishga turtki berdi.

2017 yil 20 aprel va 2017 yil 22 may kunlari qabul qilingan oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan qarorlar, xususan PQ-2909-sonli va VMQ-304-sonli qarorlar ta'lim jarayonlarini yanada samarali qilishga qaratilgan.

Keyinchalik, 2019 yil 21 oktyabrda Prezidentning PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzli va mavqeini oshirish" farmoni til siyosatiga yangicha yondashuvlarni belgilab berdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning 2019 yil 12 dekabrda 984-sonli qarori bilan "Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi Nizom" tasdiqlangan bo'lib, bu til siyosatidagi islohotlarni huquqiy asosda qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatlar doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur monografiya muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi keng ko'lamli islohotlar va yangilanishlar milliy lisoniy ongga ham sezilarli ta'sir ko'rsatib, ulkan o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Til va madaniyatning uzviy bog'liqligi, ijtimoiy hayot va tafakkur yaxlitligi lisoniy tasnifning muhim tamoyillaridan biriga aylandi. Ayniqsa, so'nggi yillarda nutq birliklarining tilshunoslikdagi ahamiyati chuqur tadqiqotlar olib borilishini taqozo etmoqda. Ushbu birliklardan biri bo'lgan intensifikatorlar semantik jihatdan o'rganila boshladi. Shu bois, ularning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganish zamonaviy tilshunoslik uchun dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Intensifikatorlar

kommunikatsiyaning ta'sirchanligini oshirishda muhim o'rin egallaydi va ular ekspressivlik, emotsionallik, baholash va ta'kidlovchi birliklar qatorida tilning asosiy qismlaridan biri sifatida ko'riladi. Ularning badiiy til va og'zaki nutqdagi ma'no jihatdan tadqiqi zamonaviy tilshunoslik uchun katta ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslik asoschisi Ferdinand de Sossyur til tizimining o'xshashlik va farqliklar atrofida aylanishini ta'kidlagan holda, farqliklarni o'rganish tilshunoslik uchun katta ahamiyatga ega ekanini aytgan. Shuningdek, zamonaviy tilshunoslik endi aynanlik va ziddiyatlar orasidagi o'xshashliklarga ham katta e'tibor berish zarurligini anglatmoqda.

Intensifikatorlar tahlili ham shuni ko'rsatadiki, intensifikatsiya hodisasi kommunikatsiyada intensivlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Tilshunos olimlar, jumladan YE.I.Sheygal, I.I.Turanskiylar ingliz tili materiallari asosida, V.V.Akulenko, V.P.Musiyenko, YE.A.Soy rus tili asosida, A.Xojiyev, A.Abdullayev, M.Sodiqova va O.Bozorovlar esa o'zbek tili materiallari asosida intensifikatorlarning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etganlar.

Ingliz va o'zbek tillaridagi intensifikatorlarning qiyosiy tahlili mazkur monografiyaning asosiy maqsadini tashkil etadi. Bu jarayonda, ular orasidagi semantik o'xshashliklar va qo'llanilish xususiyatlarini aniqlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Tadqiqotning asosiy usuli tarkibiy-semantik tahlil bo'lib, u intensifikatorlarning semantik jihatlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, dissertatsiyada tasvirlash, qiyoslash, tarjima va komponent tahlil usullari ham qo'llangan.

Tadqiqot dialektikaning miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga aylanishi, shakl va mazmun, umumiylik va xususiylik ixtiloflari haqidagi ta'limotga asoslanadi. Bu yondashuv orqali biz borliqdagi miqdoriy o'zgarishlarning tilimizda ham aks etishini taxmin qilamiz.

I BOB.TILSHUNOSLIKDA SEMANTIK KATEGORIYALAR TADQIQI

1.1. Semantika sohasining paydo bo'lishi va rivojlanishi

XIX asrning 80 - yillarida tilshunoslikda yangi atama paydo bo'ldi. Fransuz filologi Mishel Brilli 1883 yilda "Tilning intellektual qonuniyatlari" deb nomlangan maqolasini chop ettirdi. U maqolada fonetika va morfologiya bilan yonma yon holatda inson nutqining formal elementlari, u semantika deb nomlashni taklif qilgan ma'no haqidagi fan ustida bahs yuritadi. Semantika grekcha "belgi" ma'nosini anglatuvchi "semaphore" so'zidan olingan. Maqolada fanning bu sohasiga faqatgina yangilik deb qaralmaydi, M. Brilli va uning safdoshlari semantikani o'z qonuniyatlariga ega fan ekanligini isbotlab berishadi. O'tgan asrning 60-yillarigacha leksik-semantik munosabat doirasi asosan, polisemiya, monosemiya, sinonimiya, omonimiya, antonimiya hodisalari bilan cheklangan edi. So'ngra bu munosabatlar leksikadan morfologiyaga va sintaksisga ko'chirildi, shuningdek, partonimiya (xolo-meronimiya), giponimiya, kogiponimiya, plesonimiya (Dj.Layonz¹, L.R.Xorn² ishlarida bu turlar tavsiflangan) kabilar bilan to'ldirildi.

Semantikaning obyekti so'zdir. So'zning semantik strukturasi leksik ma'no va shu leksik ma'noga qo'shimcha tarzdagi xususiyatlardan iborat.

So'zlar, avvalo, obyektiv borliqda mavjud bo'lgan obyekt, sifat, harakat yoki boshqa tushunchalarni ifodalashiga qarab ikkiga bo'linadi:

¹ Lyons J. Semantik. Band I. Verlag C.H. Beck Munchen, 1980

² Horn L.R. A natural history of negation. Chicago: University of Chicago Press, 1989, (Expanded reissue, Stanford: CSLI, 2001)

tushunchani ifodalovchi soʻzlar;
tushunchani ifodalamaydigan soʻzlar.

Tushunchani ifodalash faqat mustaqil soʻzlar uchun xos xususiyatdir. Bu xususiyat aynan shu soʻzlarning maʼnosini tashkil etadi. (Mustaqil soʻz turkumlari orasida faqat olmoshlar maʼno ifodalamaydi.)

Mustaqil soʻz turkumlaridan boshqa turkumlarga oid soʻzlar obyektiv borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilarni atamaydi, yaʼni tushuncha ifodalamaydi. Masalan, undovlar soʻzlovchining turli emotsiyasini, buyruq-xitobni bildiradi: *eh* (xursandlikni bildiradi), *attang* (achinish bildiradi), *beh-beh* (chaqirishni bildiradi) va boshqalar. Undov bildirgan achinish, chaqiriq, xitob, taajjub kabilar uning (undovning) maʼnosi hisoblanadi. Obyektiv borliqdagi narsa-hodisa, belgi, harakat kabilarni atamasligi, faqat emotsiya, buyruq – xitob ifodalashi sababli, bu turkumga oid soʻzlar juda sanoqli.

Soʻzning obyektiv borliqdagi narsa-hodisa, harakat, belgi va shu kabilar haqida maʼlumot (tasavvur) beruvchi mazmuni **leksik maʼno** deyiladi.

Soʻzlar oʻz maʼnosi bilan obyektiv borliqdagi narsa, harakat kabilarning konkret (aynan) oʻzini emas, balki ular haqidagi tushunchani ifodalaydi. **Tushuncha** – bu obyektiv borliqdagi narsa-hodisalarning kishi ongida umumlashgan tarzdagi inʼikosidir.

Soʻzning tushuncha ifodalash imkoni aloqa vositasi boʻlgan tilning juda muhim xususiyatidir. Bu imkoniyatsiz tilning boʻlishini ham tasavvur etish mumkin emas. Chunki obyektiv borliqdagi har bir konkret narsa-hodisa alohida soʻz bilan ataladigan boʻlsa, u holda soʻz sanoqsiz darajada boʻlar edi. Masalan, dunyoda mavjud boʻlgan gulning (yaʼni bir turdagi predmetning) miqdorini tasavvur etib boʻlmaydi. Agar har bir

gul uchun bir soʻz qoʻllanadigan boʻlsa faqat gulga nisbatan soʻzlarning oʻziyoq son-sanoqsiz boʻladi va bu soʻzlarni yodda saqlash hamda fikr almashinuvida ulardan foydalanish imkoni boʻlmaydi.

Til birliklarini yaxlit tizim sifatida oʻrganish natijasida aniqlanishica, leksik birlilar til ichida turli semantik munosabatlarga asoslanib har xil paradigmalar shaklida mavjud boʻladi. Bunday til munosabatlariga sinonimiya, antonimiya, graduonimiya, partonimiya va giponimiya kabi turli lisoniy bogʻliqliklar kiradi. Quyida, ularning har birini batafsil tahlil qilib chiqamiz.

Sinonimiya. Turli shaklga ega boʻlgan, ammo bir tushunchalarni turli boʻyoq va nomlar bilan ifodalanadigan leksemalar sinonim (maʼnodosh)lardir. Maʼnodosh leksemalar orasidagi aloqadorlik *sinonimik munosabat* deyiladi. Maʼlumki, nutqda ishlatiladigan soʻzlarning juda katta qismini koʻp maʼnoli (polisemantik) soʻzlar tashkil etadi. Koʻp maʼnoli soʻzlarda soʻzning asl bosh (yetakchi) maʼnosidan oʻsib chiqqan turli hosila maʼnolar kuzatiladi. Aslida leksemalar oʻzaro sememalari asosida boshqa leksemalar bilan maʼnodoshlik munosabatida boʻladi. Aniqrogʻi, koʻp sememali (maʼnoli) leksemalar har bir sememasi bilan alohida-alohida maʼnodoshlik qatoriga kiradi. Chunonchi, *bosh* leksemasi «tananing boʻyindan yuqori qismi» semasi asosida kalla leksemasi bilan, «rahbarlik qilmoq, boshqarmoq» semasi asosida *yetakchi, yoʻlboshchi, sardor, boshliq, rahbar* leksemalari bilan, «tik narsalarning tepa qismi» semasi asosida *uchi, choʻqqisi* leksemalari bilan sinonimik munosabatga kirishadi. Demak, sinonimiya hodisasi haqida gap ketganda, bu hodisani *semantik* sinonimiya deb atash toʻgʻriroqdir.

Sinonim leksemalar semantik jihatdan bir xil atash va vazifa semalariga ega bo'lib, ularning farqi asosan ifoda semalarida namoyon bo'ladi. Biroq, har bir leksema o'ziga xos ifoda semasiga ega. Masalan, "kulmoq" so'zida bu munosabat neytral shaklda namoyon bo'lsa, "ishshaymoq" so'zida kuchli shaxsiy salbiy munosabat ifodalanadi [Ne'matov H., Rasulov R.; 1995: 55].

Ma'nodosh leksemalarning ifoda semalari turli xususiyatlar bilan farqlanadi. Masalan:

- Ijobiy yoki salbiy baho semalari bilan;
- So'zning qo'llanilish davriga oid «arxaik», «tarixiy», «umumiy iste'moldagi», «yangi» semalari bilan;

Ma'nodosh leksemalarning ko'pchiligi bir dominant (asosiy) so'zga bog'liq bo'ladi va ular ushbu dominant atrofida birlashib, ma'nodoshlar tizimini hosil qiladi. Dominant leksema neytral bo'lib, boshqa leksemalarning yuqoridagi ifoda semalari bilan farq qilmaydi, ya'ni betaraf holatda turadi. Dominantaning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

-dominanta leksemaning hissiy ta'sirchanligi ma'nodoshlik qatoridagi boshqa leksemalarnikiga nisbatan «kambag'alroq» bo'ladi. Chunonchi, *oriq*, *nozik*, *qotma*, *qiltiriq*, *ramaqijon*. Ushbu qatordagi *oriq* leksemasida *nozik*, *qotma*, *qiltiriq*, *ramaqijon* leksemalaridagi kabi hissiy-ta'siriy bo'yoq yo'q;

- dominanta leksemaning qo'llanilish doirasi boshqa ma'nodoshlarnikiga nisbatan keng;

- dominanta leksema istalgan vaqtda o'z ma'nodoshlarini almashtira oladi;

- ma'nodoshlik qatori mansub bo'lgan katta tizimga faqat dominanta leksema kiradi va boshqa leksemalar bilan paradigma hosil qila oladi. Masalan, «kishi tana a'zolari» lug'aviy mano guruhiga *yuz*, *aft*, *bashara*, *turq*, *oraz*, *bet*, *diydor*, *tal'at*,

chehra sinonimik qatoridan faqatgina yuz dominanta leksemasi kirib, *quloq, burun, lab, qosh, peshona* leksemalari bilan paradigma hosil qiladi. Boshqa ifoda semalarida «betaraf»lik belgisi bo'lmaganligi bois, ular yuqoridagi paradigmaga kira olmaydi.

Antonimiya – leksemalar orasidagi zidlik munosabatini ifodalaydi. Bunga katta-kichik, oq-qora, baland-past, yosh-qari kabi misollarni keltirish mumkin. Antonimik leksemalar o'zaro zid tushunchalarni aks ettiradi va ular borliqdagi qarama-qarshi hodisalar in'ikosi sifatida namoyon bo'ladi.

Antonim leksemalar tarkibida ham umumiy birlashtiruvchi, ham qarama-qarshi semalar bo'lishi lozim. Masalan, “yoz” va “qish” leksemalari umumiy «yil fasli» semasiga ega bo'lib, yoz – «yilning eng issiq fasli», qish esa – «yilning eng sovuq fasli» semalarini ifodalaydi.

Kontrast antonimiya darajalanadigan leksemalar qatorining birinchi va oxirgi a'zosiga tegishli bo'ladi. Bu holatda, ikki antonim orasida bir qancha bog'lovchi belgilar bo'lib, ular o'rtada joylashadi. Masalan, *yosh o'smir balog'at o'rta yosh qari yoki past o'rta baland* kabi qatorlarida birinchi va oxirgi a'zolar antonimlik hosil qiladi. Shunday qilib, kontrast qarama-qarshilikni leksemalarning darajalanish qatorlaridan topish zarur bo'ladi [J.Sh. Jumabayeva, O'zbek va ingliz tillarida fe'llar graduonimiya, O'zMU xabarlari, 2010, 1-son].

Graduonimiya – bu lug'aviy birliklarning ma'nolariga ko'ra darajalanish qatorlarini shakllantirishi bilan izohlanadigan til hodisasi bo'lib, bu qatorlar kamida uchta elementdan tashkil topishi kerak. Bu hodisa, ma'lum belgi yoki holatning turli darajalarini ifodalovchi so'zlar yordamida ifodalanadi. Masalan, *sovuq, salqin, iliq* va *issiq* so'zlari haroratning turli darajalarini ko'rsatadi.

O'zbek tilida graduonimiya hodisasi keng o'rganilgan bo'lib, tilshunos olimlar ushbu munosabatni o'rganishda ikki asosga tayanganlar:

- 1) ma'nodosh so'zlar orasidagi semantik bog'lanish,
- 2) grammatik qurilish orqali hosil bo'luvchi darajalanish.

Bunday so'z qatorlari tabiatdagi real holatlarning miqdoriy va sifat o'zgarishlariga mos keladi.

Masalan, "kichkina", "o'rtacha", "katta" so'zlari o'lchamning darajalarini, "sekin", "tez", "juda tez" esa harakat tezligini ifodalovchi graduonimik qatorlar sifatida ko'rilishi mumkin. Bu yerda asosiy omil so'zlar orasidagi ma'noviy bog'lanish bo'lib, bu bog'lanish orqali bir so'z boshqa so'z bilan taqqoslanadi va ularning farqlari ajratiladi.

Shu bilan birga, O.Bozorov o'z tadqiqotlarida g'ayrilisoniy va sof lisoniy asoslarni ajratib ko'rsatgan. G'ayrilisoniy omil borliqdagi miqdoriy va sifat o'zgarishlari tilimizda ifoda topishining natijasi bo'lsa, sof lisoniy asoslar ma'noviy bog'lanish va so'zlarning paradigmatic munosabatlariga bog'liqdir. Masalan, "nihol", "ko'chat" va "daraxt" ketma-ketligi bir narsaning turli rivojlanish bosqichlarini ifodalaydi.

Shuningdek, ranglar bo'yicha darajalanish qatori ham graduonimiyaning bir ko'rinishi sifatida misol bo'lishi mumkin: "gulobi", "pushti", "qizg'ish", "qizil", "ol", "qirmizi". Bu ranglar o'zaro aloqador bo'lsa-da, ularning har biri o'ziga xos darajaga ega.

Gulobi – pushtiga yaqin rang; pushti – shaftoli guli rangidagi och qizil, gulobidan to'qroq; qizg'ish – pushtidan yanada to'qroq; qizil – qon rangiga o'xshash;

Ushbu ranglar qatorida har bir leksema ma'lum belgi yoki rangning turli darajalarini ifodalab, o'zaro bog'liq va darajalanuvchi ma'nolarni hosil qilmoqda. Bu misolda ma'noviy

omil ikki jihatni qamrab oladi: birinchidan, bir-biriga yaqin va o'xshash tushunchalarni ifodalash, ikkinchidan, ayni bir belgining turli miqdoriy darajalarini ko'rsatish.

Graduonimik qatorlar ushbu lug'aviy paradigmalarning barcha talablariga javob beradi, ya'ni ular so'zlarning ma'no jihatdan izchil darajalanishini ko'rsatadi va tilning semantik tizimida muhim rol o'ynaydi.

Giponimiya. Leksemalar orasidagi yana bir muhim semantik munosabat turiga giponimiya kiradi, bunda tur va jins o'rtasidagi bog'lanish o'z ifodasini topadi. Giponimik munosabatlarda umumiy atama (jins) va unga xos xususiyatlarni bildiruvchi tur (giponim) o'rtasidagi farq aniq ko'rinadi.

Tilshunos olim R. Safarovning fikriga ko'ra, giperonim bir qancha ma'nolarni o'zida umumlashtiruvchi va o'zi tasvirlayotgan obyektning umumiy xususiyatlarini ifodalovchi markaziy leksema hisoblanadi. Giponim esa, o'zining semantik tarkibida jins ma'nosini ham qamrab olib, giperonimga nisbatan ancha boy ma'noli lug'aviy birlikdir. Masalan, daraxt (jins) - terak, olcha, dub, chinor, olma, archa va boshqalar (tur); meva (jins) - olma, olcha, shaftoli, o'rik, nok va hokazo (tur); o'quv qurollari (jins) - daftar, kitob, qalam, chizg'ich kabi (tur) birliklar misol bo'la oladi.

Giponimik munosabat ham boshqa hodisalar kabi barcha tillar uchun xosdir. Chunonchi, *derevo (jins) – grusha, vishnya, yabloko, persik* (tur).

Partonimiya. Partonimik munosabatlarda butun-bo'lak tushunchasi o'z aksini topadi. Masalan, *daraxt* (butun), *shox, tana, ildiz* (qismlar); *odam* (бытун), *bosh, tana, qo'l, oyoq* (qismlar). Tirnoq barmoqqa nisbatan, barmoq qo'lga nisbatan, qo'l esa odamga nisbatan butun-bo'lak munosabatida bo'ladi. Lisoniy tizimda leksemalarning mustaqil va yordamchi

leksemalarga bo'linishi hamda *mustaqil leksemalar* (butun), *fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid, olmoshlar*(qism) vazifasida turishi ham shu hodisaga misoldir.

Omonimiya. Shaklan bir xil, mazmunan esa turlichalik **nutqiy bosqichga xos** bo'lib, lisoniy birliklarda omonimlik yo'q.

O'zbek tilida omonimiya hodisasini ko'plab tilshunoslar tadqiq etganlar. Ulardan biri Ergashali Qilichevdir. U tadqiqotida omonimlik hodisasi xususida jumladan shunday yozadi: "Nutqda ba'zan so'zlarning shakli ham, talaffuzi ham shakldosh bo'lib qoladi va uning ma'nosi kontekstda oydinlashadi. Chunonchi, *"Topgan gul keltirar, topmagan bir bog' piyoz. Yaxshidan bog' qoladi, yomondan dog"*³.

Omonim so'zlarda ma'no bog'liqligi bo'lmaydi, ular shu jihatiga ko'ra ko'p ma'noli so'zlardan farqlanadi.


Leksemalar o'zaro mazmun guruhlarini hosil qiladi. Leksemalarning mazmun guruhlari (LMG) semasiologiyaning eng zarur tushunchalaridan biri hisoblanadi. LMG deganda, muayyan birlashtiruvchi semasi asosida ma'lum guruhga birlashtiruvchi, ayni paytda farqlovchi semalariga ko'ra o'zaro farqlanib, ajralib turuvchi leksemalar tushuniladi. Yuqorida ko'rib o'tilgan ma'nodoshlik qatorlari, mazmuniy darajalanish qatorlari LMGlarning bir turidir.

Leksemalarni bir guruhga birlashtirish uchun ularni shunday xususiyatlarga asoslab umumlashtirish lozimki, ushbu guruhdagi leksemalar ma'lum soha yoki turkumga tegishli bo'lib, ular orasida o'xshashliklar ko'p, farqlar esa minimal bo'lishi kerak.

qoramol LMG: (sigir, buzoq, tana, g'unajin, ho'kiz, buqa, govmish...);

³ Qilichev E. O'zbek tilida omonimiya – Toshkent, O'qituvchi 1999, 87-bet

LMGlar ikki qismdan – asos va qurshovdan iborat boʻladi. LMG asosi, odatda, bir necha (taxminan ikki - besh) leksemadan tashkil topadi va doimiy barqarorlikka ega boʻladi. Qurshov esa oʻzgaruvchandir. Chunonchi, «Osmon jismlari» LMGining markazi (XY asrdan to hozirgacha) toʻrtta leksemadan iborat: [quyosh, oy, yulduz, sayyora]. Bu leksemalarning qurshovi har bir davr uchun oʻziga xos boʻlib, vaqt oʻtishi bilan oʻzgarib turishi tabiiydir. XY asrda:



Umumiy bir mavzuga oid bir necha LMGlarning o'zaro birlashuvi lug'aviy ma'no to'dalari (LMT) deyiladi. Masalan, o'zi bir necha LMGlardan iborat bo'lgan «Uy hayvonlari» LMTlari, «Qushlar» LMTlari shular jumlasidandir.

14

1.2. Intensifikatorlarni semantik kategoriyalardan biri sifatida o'rganilishi

Bugungi kunda bu masalani chuqurroq o'rganish imkoniyati paydo bo'lib, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya nuqtai nazaridan ham tahlil etish yo'llari kengaymoqda. Lug'atdagi ba'zi so'zlar nafaqat ma'lum hodisalarni ataydi, balki so'zlovchining o'z munosabatini ham ifodalaydi. Ushbu munosabat doirasiga ta'kid, g'azab, erkalash, qoyil qolish, nafrat, jirkanish va kinoya kabi turli xil emotsional ko'rinishlar kiradi. Shunday ekspressivlikni ifodalovchi kategoriyalardan biri **intensivlik**dir.

O'zbek tilining izohli lug'atid a intensivlikga quyidagicha ta'rif beriladi: "Intensiv [fr. intensif<lot.Intensio - g'ayrat, ko'p hosil beruvchi, serunum. Dehqonchilikning intensiv tizimi]" [O'zbek tilining izohli lug'ati, 2-jild, 2008 yil]. Intensifikatsiya – sifatning miqdoriy o'zgarishi bo'lib, bu meyordan chetga chiqish holati bilan bog'liq bo'ladi hamda bu so'zlovchi va tinglovchi uchun ahamiyatlidir. Intensivlik hodisasi intensifikatorlar orqali yuzaga keladi. Intensifikator esa intensivlikning meyordan yuqori darajasini ifodalaydi, ya'ni intensiv natijalarni ko'rsatadi. Masalan, ingliz tilida "l-a-a-a-rge" so'zidagi cho'zilgan "a-a-a" intensifikator hisoblanadi, "l-a-a-arge room" esa intensivlikni bildiradi.

Sh. Balli tomonidan keng sharh qilingan ushbu yondashuvda u miqdor, kattalik, qiymat va kuch kabi kategoriyalarni intensivlik tushunchasiga bog'lagan [Balli Sh. Fransuz stilistikasi, 1961 yil].

A.V. Kunin va A. Abdullayev kabi olimlar ham bu qarashni qo'llab-quvvatlagan holda intensivlikni "kuchaytirish" ma'nosida ishlatganlar. Ammo D.Bolindjer va B. Charlston kabi

olimlar esa “ekspressivlik”, “emotsionallik” va “affektivlik” kabi tushunchalarni “intensivlik” atamasi bilan bir xil deb biladilar. Tilshunoslik fanida “intensifikator” atamasi ilk bor J. Marovsksk tomonidan 1972 yilda qo‘llangan [E. Konig, 2006 yil].

So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, intensivlik faqat o‘zlik olmoshidan emas, boshqa til birliklari orqali ham ifodalanishi mumkin. Ingliz tilidagi intensivlikni YE.I. Sheygal va I.I. Turanskiy tadqiq qilgan bo‘lsa, o‘zbek tili bo‘yicha A. Xojiyev, A. Abdullayev, M. Sodiqova va O. Bozorovlar tadqiqotlar olib borgan.

Ingliz tilida intensifikatorlarning turlari hamda o‘zbek tilidagi intensifikatorlarning vazifadoshlari turlarini o‘xshah va farqli jihatlarini tahlil qilib, har ikki tilda intensifikatorlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish asosiy maqsadimizdir. Zero, tahlil asosida ciqarilgan xulosalar o‘zbek va ingliz tillarida mavjud intensifikatorlar turlarini chuqurroq o‘rganishga hamda intensifikatsiyalashda nimalarga e‘tibor qaratish zarurligini aniqlashga imkon yaratadi. Natijada qardosh bo‘lmagan tillarda har qanday sathda intensifikatsiyaning o‘ziga xos jihatlarini yanada yaqqol namoyon bo‘lishi yana bir bor isbotlandi.

Ingliz tilida intensifikatorlarning turlari hamda o‘zbek tilidagi intensifikatorlarning vazifadoshlari turlarini o‘xshash va farqli jihatlarini tahlil qilib, har ikki tilda intensifikatorlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish asosiy maqsadimizdir. Zero, tahlil asosida chiqarilgan xulosalar o‘zbek va ingliz tillarida mavjud intensifikatorlar turlarini chuqurroq o‘rganishga hamda intensifikatsiyalashda nimalarga e‘tibor qaratish zarurligini aniqlashga imkon yaratadi. Natijada qardosh bo‘lmagan tillarda har qanday sathda intensifikatsiyaning o‘ziga xos jihatlarini yanada yaqqol namoyon bo‘lishi yana bir bor isbotlanadi.

Graduonimiya terminini intensifikatsiya bilan ham aynanlashtirish hollari uchraydi. Rus tilshunosligida intensifikatsiya S.S.Safonova, I.I.Sushinskiy, YE.I.Sheygal⁵ kabi tilshunoslar tomonidan maxsus o'rganilgan bo'lsa, ingliz tilshunosligida bu sohada D.Bolinger⁶ maxsus tadqiqot ishlarini olib borgan.

Lingvistik tadqiqotlarda Sh.Ballining intensivlik bu – “ma'lum bir predmet yoki hodisa, mavhum tushunchalar xaqida so'z borishidan qat'iy nazar, ulardagi miqdor, hajm, qadriyat, kuch va shunga o'xshash kategoriyalar farqlarini intensifikatsiya deb atay olamiz” degan fikriga qo'shilgan holda belgining miqdoriy o'zgarishi, matndagi kategoriyaning kuchaytirilgan holda berilishi deb qayd etish mumkin. I.I.Sheygal o'z tadqiqotida intensivlikni miqdoriy o'zgarishlarning sifat o'zgarishiga aylanish kategoriyasi deb hisoblaydi⁷. Bu yerda ham lisoniy emas, nutqiy darajalanish nazarda tutilmoqda. Agar u tilda bo'lsa, intensivlik emas, balki graduonimiyadir. Rus tilshunosligida *градуальность* sifatida talqin qilingan bu hodisani o'zbek tilshunosligidagi *graduonimiya* tushunchasi bilan aynan bir xil deyish mumkin emas. S.M.Kolesnikova ham nutqda gradatsiya shkalasi bo'yicha sifat belgilarini noldan boshlab tartibga solishni graduирование yoki gradualnost⁸ deb atagan. Intensivlik kategoriyasi so'zlarni sifat yoki miqdor jihatidan ko'tarish yoki pasaytirish orqali tizimlashga qaratilgan emas. Misol sifatida *sovuq*→*salqin*→*iliq*→*issiq* so'zlar qatorini keltirsak, bu holatda intensivlikni muhokama qilish o'rinsiz

⁵ Сафонова С.С. Местоименно-союзные предложения с семантикой интенсивности в языке современной прессы. Автореферат дисс. ...канд. филол.наук. – Казань, 2002.Сущинский И.И. Словарь усилительных словосочетаний русского и немецкого языков. – М., 1997Шейгал Е.И. Интенсивность как компонент семантики слова в современном английском языке. Дисс. ... канд.филол.наук. – М., 1981.

⁶ Bolinger D. Degree words. – Paris: Lions, 1972

⁷ Шейгал Е.И. Интенсивность как компонент семантики слова в современном английском языке. Дисс. ... канд.филол.наук. – М., 1981

⁸ Колесникова С.М. Категория градуальности в современном русском языке. Дисс....докт. филол. наук. – М. 1999. – С. 17

bo'ladi. Chunki bunda kontekst yetishmaydi va nimani intensivlashtirish mumkinligi noma'lum. Intensivlik boshqa kategoriyalardan aniqlik va subyektivlik darajasi bilan ajralib turadi. Graduonimik qatorga esa denotati miqdori kamdan ko'pga, sekinlikdan tezlikka yoki bo'yoqdorlikning oshishiga, shuningdek, salbiylikdan ijobiylikka qarab o'zgaradigan leksemalarni kiritish mumkin.

Bundan tashqari, intensivlikda ko'p hollarda bo'yoqdor iboralar ishlatiladi, masalan: "dang'illama koshona", "misli tengi yo'q saroy". T.V. Matveyeva esa "intensivlik" o'rniga "чрезмерность" (ortiqchalik) terminini qo'llashni taklif etadi [Matveyeva T.V., 1986]. Biroq bu so'zlar ko'pincha salbiy ma'noda ishlatiladi, shu sababli bu terminni intensivlik bilan tenglashtirish noto'g'ri bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Intensivlik kategoriyasi kognitiv lingvistika doirasida "relevantlik" yoki "tezlashish" kabi tushunchalar orqali tushuntirilishi mumkin. Shuningdek, intensivlik jarayonida graduonimiyaning barcha turlari ham ko'rinishi mumkin.

Shuni ham ta'kidlash joizki, intensivlikni giperboladan ham farqlash muhim. Emfatik xarakter beruvchi, ifodalilikni kuchaytiruvchi, mazmunni boyituvchi giperbolizatsiya noreal kuchaytirish xususiyatiga ega. Bu ham bitta sema asosida emas, balki biror bir kontekstda bo'rttirish, noreal bo'rttirish demakdir. Mubolag'a ko'pincha turg'un birikmada mavjud bo'ladi. Masalan, *do'ppisini olib kel desa, boshini olib keladi; ur desa, ko'zini chiqaradi; ovozing yetti mahallaga eshitilyapti* va hokazo.

Bizning fikrimizcha, intensivlik semantik kategoriya sifatida umumtil hodisasi hisoblanadi. Chunki u so'zning semantikasini kuchaytiradi va uning tuzilishida yangi ma'no nozikliklarini yuzaga keltiradi.

1.3. Intensivlik va uning vazifadoshlari.

Ekspressivlik. Ekspressivlik lotincha soʻzidan olingan boʻlib, maʼnodor, taʼsirli, ifodali maʼnolarini anglatadi. Ekspressivlik bu kishi sezgisi va fikrining aniq namoyon boʻlishidir. V.N.Teliyaning fikricha, ekspressivlik - “bu umumiy holatdagi sifatning yoki miqdorning kuchayishidir”. YE.M.Galkina – Fedoruk esa ekspressivlikka quyidagi taʼrifni beradi: “Ekspressivlik – bu taʼsirchanlikning kuchayishi, yaʼni bayon etilayotgan fikrning taʼsir kuchini ortishidir”.

I.V.Arnold ekspressivlik deyilganda, “matn mazmuniga kuchli intensivlik bagʻishlovchi xususiyatlarni” tushunadi.

Maʼlumki, har qanday soʻzning ikki tomoni bor: 1) ichki, yaʼni leksik maʼno tomoni 2) tashqi, yaʼni nomema tomoni. Dastlab “ekspressiya” tushunchasi soʻzning ifoda tomoni uchun qoʻllangan. Keyinchalik esa u “ifoda” maʼnosidan “ifodalilik”, yaʼni ifodaning ravshanligi, aniqligi, boʻrtib turishi, taʼsirchanligi kabi maʼnolarni kasb etgan. Hozirgi davrda ekspressiya soʻzi asosan keyingi hosil boʻlgan maʼno, yaʼni ifodalilik, taʼsirchanlik maʼnolarida qoʻllanilmoqda. Ingliz tilidagi koʻpgina sifatlar belgining yuqori darajasini ifodalaydi.

- 1) good – having desirable quality;
- 2) wonderful – of very good quality;
- 3) gorgeous – of an outstanding quality;

Misollardan koʻrinib turibdiki, qatordagi uchinchi soʻz **gorgeous** semantik jihatdan kuchli boʻlib, mazkur belgining yuqori darajasini koʻrsatmoqda. Ravshanki, intensivlik va ekspressivlik har qanday tilda, shu jumladan, ingliz tilida ham oʻz ifoda vositalariga ega. Bunda intensifikatorlar matndagi ekspressivlik miqdorini orttiradi.

Ma'lumki, ekspressivlik kategoriyasi lingvistik adabiyotlarda "intensivlik" tushunchasi orqali talqin etiladi. Ba'zan esa intensivlik va ekspressivlik, agar bunga ehtiyoj tug'lsa, tenglashtiriladi. Masalan, *very*, *terribly* intensifikatorlari yordamida ekspressivlik kuchi yanada ortib boradi, zotan, intensivlik ekspressivlik ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Ekspressivlik okkazionalizmlar, so'z birikmasidagi so'zlar o'rnining o'zgartirilishi, so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatish kabilar orqali namoyon bo'ladi. Ko'pincha intensivlik, obrazlilik, emotsionallik, baholash va ekspressivlik bir hodisa sifatida qaraladi.

Nazarimizda, intensivlikni ekspressivlikka tenglashtirish to'g'ri emas. Ular bir-biriga bog'langan til hodisalari bo'lsa ham, mushtarak maqomga ega bo'lolmaydi. Intensivlik ekspressivlikning bir qismi bo'lmay, balki ekspressivlik tomonga siljishga undovchi lingvistik omildir. Agar intensivlik onomasiologik kategoriya sifatida miqdor yoki darajani anglatga, ekspressivlik tildan tashqari borliqda o'zining referentiga ega emas va u axborot yoki darak berish vazifasini bajarmaydi, balki adresatga yetkaziladigan axborotni ta'sirchan qilish uchun xizmat qiladi.

Xullas, intensivlik va ekspressivlikning o'xshash va farqli tomonlarini quyidagilarda ko'ramiz:

1. Har ikkala kategoriya ham tilda bir xil ifoda vositalariga ega. Masalan, ekspressiv sintaktik vositalarga takror, parallelizm, inversiya, ritorik so'roq gap va boshqalar kirsa, aynan ushbu vositalar nutq intensivligini ifodalovchi vositalar ham hisoblanadi.

2. Intensivlik va ekspressivlik mazmun jihatdan bir-biridan farqlanadi. Agar ekspressivlik semasiologik kategoriya sifatida nutq ta'sirchanligini, ifodaliligini oshirishga xizmat qilsa, inten-

sivlik onomasiologik kategoriya sifatida belgining miqdoriy xarakteristikasini (belgining meyordan ortiq yoki kamligini) ifodalaydi. Bu esa uning ekspressivlikni keltirib chiqaruvchi hodisa, manba ekanligini dalillaydi.

3. Har ikkala kategoriya vazifasi jihatdan bir-biriga mos keladi. Har ikkisi birgalikda yoki alohida olinganda ham adresatga kuchli ta'sir etish vazifasini bajaradi.

Emotsionallik hodisasi til birliklari orqali insonlarning atrof-muhitga, boshqa odamlarga nisbatan munosabati va kechinmalarini ifoda etadi. Lotin tilidagi "emovere" so'zidan kelib chiqqan "emotsiya" so'zi, insonning his-tuyg'ulari, kechinmalari va hissiyotlari ma'nosini anglatadi. Emotsionallik esa nutqiy kategoriya hisoblanib, narsa va hodisalarni ma'qullash yoki ma'qullamaslik, shodlik yoki achchiqlanish kabi turli tuyg'ular bilan bog'lanadi. Emotsionallik odatda baholash tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Emotsional ma'no nafaqat leksik ifoda orqali, balki his-tuyg'u va sezgilar bilan ham tushuniladi.

Emotsionallik hodisasi doimo olimlar diqqat markazida bo'lgan va uning xususiyatlari keng o'rganilgan. Shuni aytish lozimki, emotsionallik va intensivlik bir-biriga yaqin hodisalar bo'lsa-da, ular har doim bir xil bo'lavermaydi. Intensivlik har doim emotsional bo'lmasligi, ba'zan sof mantiqiy bo'lib, so'zning denotativ ma'nosiga kirishi ham mumkin. Masalan:

1) She is happy (emotsional, lekin intensivlik jihatdan neytral).

2) She is extremely happy (intensivlik darajasi o'ta kuchli).

Misollardan ko'rinib turibdiki, intensifikator emotsionallikning yuqori darajasini ifodalashga xizmat qilmoqda. Barcha emotsional so'zlar o'zining denotativ ma'nosida ekspressivlik semasiga ega bo'ladi, lekin ekspressiv birliklar tarkibida

emotsional semalar bo'lmashligi ham mumkin. Intensivlik emotsionallikning darajasini belgilash uchun xizmat qiladi, zotan, u emotsionallikning miqdoriy o'lchovi hisoblanadi.

Agar til birliklarining semantik tarkibida emosema mavjud bo'lsa, bu birliklar ekspressiv bo'lib, emotsional rangga ega bo'ladi. Shu sababli, turli tillarda, jumladan, ingliz tilida ham, emotsional va ekspressiv leksika qatlami mavjud bo'ladi.

Baholash. Baho so'zlovchi yoki nutq subyekting borliqdagi narsa va hodisalarga munosabatidir. Turli tillar materialida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, baholash turlari orasida intellektual-mantiqiy baho dominant hisoblanadi. Bu shunday bahoki, u obyektiv belgilar haqida mantiqiy fikrlashga asoslanadi. Masalan: "I despise the word failure; it is a harsh and unforgiving term in any language." "Bu yerda **harsh** so'zi orqali baholash ma'nosi berilgan.

●see (baholash ottenkasi yo'q): "I saw the car pass by." ko'rmoq (baholash ottenkasi yo'q): "Men mashinani o'tib ketganini ko'rdim".

●stare (baholash ottenkasi bor): "She stared at the painting for hours." tikilib qaramoq (baholash ottenkasi bor): "U soatlab rasmga tikilib qaradi".

●walk (baholash ottenkasi yo'q): "They walked to the park together." yurmoq (baholash ottenkasi yo'q): "Ular bog'ga birga yurishdi".

●stomp (baholash ottenkasi bor): "He stomped out of the room in anger." tap-tap bosib chiqmoq (baholash ottenkasi bor): "U g'azab bilan xonadan tap-tap bosib chiqib ketdi".

●speak (baholash ottenkasi yo'q): "He spoke at the meeting." gapirmoq (baholash ottenkasi yo'q): "U yig'ilishda gapirdi".

●yell (baholash ottenkasi bor): "She yelled at her brother."
baqirmoq (baholash ottenkasi bor): "U ukasiga baqirdi." Soʻzlar semantik belgilariga koʻra baholash jihatdan neytral hamda bevosita baho ifodalovchilarga boʻlinadi".

Baho ifodalovchi soʻzlar doirasida, oʻz navbatida, ikki guruh, yaʼni ijobiy va salbiy baho ifodalovchilar farqlanadi.

Tilshunoslikda bu koʻpincha (+ / -) tarzida belgilanadi. Biroq tillarda ijobiy va salbiy baho ifodalovchi soʻzlar son jihatdan bir xil emas. Masalan, ingliz, rus va oʻzbek tillarida miqdoriy munosabatni ifodalovchi salbiy baholi soʻzlar ijobiy baholi soʻzlarga qaraganda koʻp. Bu holat koʻproq ijtimoiy-ruhiy omillarga bogʻliq: hamma yaxshi narsalar, voqea, hodisalar meyor hisoblanadi.

Intensivlik va baholash kategoriyalari semantik jihatdan murakkab aloqadadir. Shunisi muhimki, har qanday belgining intensifikatsiyasi baholash kvalifikatsiyasi bilan uygʻunlashadi. Bunda soʻz maʼnolari bir vaqtning oʻzida intensivlik va emotsionallik semalarini qamrab oladi. Bu hol esa baholash komponentining yuqori darajada boʻlishiga olib keladi. Qiyoslaymiz: ingliz tilida terribly or awfully love / hate. 2) tremendously beautiful / ugly.

Intensifikatorlardagi sof salbiy baho belgisi koʻp hollarda yoʻqoladi. Bunday vaziyatda intensifikatsiyaga olib keluvchi vositalar emotsionallik va baholash maʼnolarini aks ettiradi.

Baho kategoriyasining murakkabligi va koʻpqirraligi, tarkib va maʼno jihatidan keng qamrovligi ushbu hodisaning mantiq va tilshunoslikda turlicha tavsiflanishiga sabab boʻlmoqda. Shaxsning idrok qilinayotgan voqelikka boʻlgan munosabatini aks ettiruvchi baholash faoliyati ushbu voqelik parchasining pragmatik qiymati, mohiyatining shaxs tomonidan belgilanishidir. Bu faoliyat jarayonida biror bir hodisaning sifat

berilayotgan xususiyati tanlangan namuna yoki meyorga qiyoslanadi va bu orqali meyordan chetga chiqish (ijobiy yoki salbiy) holatlari aniqlanadi.

Xullas, baholash faoliyati inson lingvokognitiv faoliyatining mahsuli ekanligiga hech qanday gumon yo'q, zero baholash harakatining har qanday ko'rinishi idrok va nutq subyekti faoliyati bilan bog'liq holda tavsiflanadi. Zotan, intensivlik baholashning me'yoriy o'lchovi hisoblanadi.

Ta'kidlash. Intensivlik ta'kidlashdan farq qiladi. Ta'kidlashning maqsadi so'z ifodalayotgan ma'no predmetini kuchaytirish emas, balki shu predmetning ma'nosiga diqqatni tortish, uni boshqa so'zlarning ma'nolariga qaraganda ahamiyatli ekanligini ko'rsatishdan iboratdir. Ta'kidlash vazifasini ohang, ta'kidlovchi yuklama kabilar bajaradi. Masalan, *My father is a teacher*. Logik urg'u orqali istalgan so'zni ta'kidlash, bo'rttirish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Demak, ekspressivlik intensifikatsiya, emotsionallik, baholash, ta'kidlash kabi hodisalar asosida yuzaga keluvchi nutqiy ta'sirchanlik hodisasidir. Intensivlik ekspressivlik, emotsionallik, baholashning miqdor ko'rsatkichi, ta'sirchanlik darajasi uchun xizmat qiluvchi dinamik hodisadir. Intensivlik tilning turli sathlarida o'zining fonetik, morfologik, sintaktik, leksik usullaridagi ifodalanish tizimiga ega.

Bu bo'limda bayon etilganlardan quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

Intensifikatorlar semantik kategoriya bo'lib, nutq ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Intensifikatorlar intensivlikni hosil qiladi.

1. Intensivlik belgining meyor yoki muayyan holatga nisbatan oshishi, sifatning miqdor o'zgarishidir. U inson tafakkurida in'ikos holda voqelanib, tilda o'z ifodasini topadi.

Shuning uchun intensivlikka onomasiologik, ya'ni o'z voqeligidan kelib chiqib o'rganish mumkin bo'lgan hodisa sifatida qarash mumkin.

2. O'z tabiatiga ko'ra moddiy (tabiiy) va ruhiy (hissiy) bo'lganligi uchun intensivlikni obyektiv va subyektiv turlarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Mazkur turlardagi intensivliklar tilda o'zlariga xos ifodalanish vositalariga ega.

3. Intensivlik muayyan miqdor darajalarida (me'yordan ortiq, ortiqroq, juda ortiq) namoyon bo'ladi. Ushbu gradatsiya holatlari o'ziga xos ifoda vositalariga ega.

4. Intensivlik va emotsionallik o'zaro yondosh hodisalardir.

Emotsionallik his-tuyg'u yoki ruhiy kechinma bo'lib, unga ham o'ziga xos yo'sindagi intensifikatsiya xosdir. Intensifikatsiya emotsionallikning miqdor darajasini ko'rsatadi.

5. Baholash hodisasi oshirish yoki kamaytirish xususiyatlariga ega bo'lganligi uchun uning tarkibida intellektual intensifikatsiya uchraydi.

6. Ta'kidlash (aksentuatsiya) tilning obyektiv borliq bilan bog'liq mazmun tomoni bilan emas, balki ifoda holati bilan bog'liqdir.

7. Ekspressivlik intensifikatsiya, emotsionallik, baholash, subyektiv modallik kabi hodisalar asosida yuzaga keluvchi nutqiy ta'sirchanlik hodisasidir. Intensivlik ekspressivlikning miqdor ko'rsatkichi, ta'sirchanlik darajasi uchun xizmat qiluvchi moddiy dinamik hodisadir.

II BOB. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA INTENSIFIKATORLAR VA ULARNING O'RGANILISHI

2.1. Ingliz tilida intensifikatorlar tadqiqi tarixi va olimlar nazariyalari

So'z ma'nosida intensivlikning ifodalanishini G.Kirxner, B.Charlston, S.Grinbaum, D.Bolinjer, A.V.Kunin, V.I.Shaxovskiy, L.Y.Gerasimova, Ye.N.Sergeyeva, O.F.Shevchenko, I.G.Beruchashvili, V.A.Malsev, K.M.Suvorina, YE.I.Sheygal, I.I.Turanskiylar ingliz tili materiallari asosida tadqiq etganlar.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, tilshunoslikda intensivlikning semantik komponentlik maqomi masalasi uzoq vaqt munozarali bo'lib kelgan. YE.I.Sheygalning tadqiqotida intensivlik komponentining semantik maqomini aniqlashga harakat qilingan. Mazkur tadqiqotda leksik sathdagi intensifikatorlar alohida qatlam sifatida ajratilgan. Ishda intensivlik maqomi mustaqil onomasiologik kategoriya sifatida qaralgan va u miqdor, baholash, emfaza va ekspressivlik kategoriyalaridan farqlangan. Muallif kuchaytirishning turli darajalarini ifodalovchi uchta semantik komponentni aniqlaydi:

Katta darajani bildiruvchi so'zlar:

- very: He is very talented. (U juda iste'dodli.)
- much: I much appreciate your help. (Men sizning yordamingizni katta qadrlayman.)
- greatly: She was greatly impressed by the performance. (U chiqish (namoyish) dan katta ta'sirlandi.)
- deeply: He deeply regrets his decision. (U o'z qaroridan chuqur afsuslanmoqda.)
- highly: The project was highly successful. (Loyiha juda muvaffaqiyatli bo'ldi.)

Juda yuqori darajani bildiruvchi soʻzlar:

● **extremely:** The weather is extremely cold today. (Bugun havo oʻta sovuq.)

● **exceedingly:** She is exceedingly happy with the results. (U natijalardan oʻta mamnun.)

● **extraordinarily:** He is extraordinarily skilled in his work. (U oʻz ishida favqulodda mahoratli.)

Absolyut darajani bildiruvchi soʻzlar:

● **utterly:** The plan was utterly useless. (Reja butunlay foydasiz edi.)

● **completely:** They are completely satisfied with the outcome. (Ular natijadan toʻliq qoniqishdi.)

● **fully:** She fully understands the situation. (U vaziyatni toʻliq tushunadi.)

YE.I. Sheygal murakkab ichki intensivlarga quyidagilarni kiritadi:

1) **emotsional kuchaytirish** (intensivlik emotsional baho bilan murakkablashadi: shockingly, astonishingly, abominably);

2) **toʻlaonli kuchaytirish** (intensivlik intellektual baho bilan murakkablashadi: too, over, excessively).

YE.I. Sheygalning tadqiqotida asosiy urgʻu intensivlikni ifodalovchi leksik birliklarga qaratilgan boʻlib, bu hodisaning fonetik, morfologik, sintaktik va stilistik jihatlari eʼtiborsiz qoldirilgan.

G. Beruchashvili esa intensivlik kategoriyasining leksik vositalar orqali ifodalanishini oʻrgangan. Uning tadqiqotida intensivlik "aniqlovchi + aniqlanmish" tipidagi model asosida tahlil qilingan. Bu yondashuvda, taʼkid maʼnosini ifodalovchi soʻz birikmasidagi aniqlovchi komponent intensifikator sifatida xizmat qiladi. Kuchaytirish maʼnosi esa sintagmaning aniqlovchi qismidagi semantik tarkibda koʻrinadi.

Intensifikator bilan belgining kuchaytirilishi ham miqdor, ham sifat tomondan mazkur belgini obrazli qayta tushunishga olib keladi, ya'ni sifatdagi kuchaytirish o'zida miqdoriy tomonni ham namoyon etadi. Masalan: great speed – lightening speed; very beautiful – breathingly beautiful. Beruchashvili diqqatini asosan ma'no kuchaytiruvchi intensifikatorlarga qaratib, mazkur hodisaning turli sathlarda namoyon bo'lishi, intensivlik ifodalovchi stilistik troplar xususida fikr bildirmagan. Unda intensivlik ma'nosining ifodalanishiga xos bo'lgan juz'iy va universal til vositalari o'rganilgan. Qiyoslanayotgan tillardagi fe'l leksemalari doirasida harakat intensivligini ifodalovchi asosiy usullar aniqlandi. Ushbu tadqiqotda asosan ma'no kuchaytiruvchi fe'l leksemalari va ish-harakatni kuchaytiruvchi ba'zi prefikslar (over-, super-, out-, en-, em-, ir-) tahlil qilinadi.

Til birliklari intensivlik kategoriyasini shunday qamrab oladiki, ularda eng kuchsiz nuqtadan eng kuchli nuqtagacha ifodalash xususiyatlariga imkon tug'iladi. Bu shkalaning nul (boshlang'ich) bosqichi matnda ma'noni kuchaytirish va kuchsizlantirish uchun asosiy (meyoriy) nuqta hisoblanadi. Bu nuqtada turgan so'z boshqa qiyosiy darajalar uchun dominant hisoblanadi. Tadqiqotchi asosan ma'no kuchaytiruvchi leksik vositalarni tahlil etadi. Natijada tilning boshqa sathlaridagi intensivlik ifodalovchi vositalar e'tibordan chetda qolgan. Intensivlikni turli so'z turkumlari bo'yicha o'rganish L.Y.Gerasimova, O.F.Shevchenko, V.Malsev, O.Bozorov kabi tadqiqotchilar ishlarida o'z ifodasini topgan. Y.Gerasimova va V.Malsev ingliz tilidagi kuchaytiruvchi ravishlarni tadqiq etadilar. L.Y.Gerasimova o'z ishida belgining yuqori darajasini ifodalashda intensivlik va subyektiv baho tushunchalarini farqlashga e'tibor qaratadi. Lekin, bu ishlardan farqli o'laroq, V.Malsev o'z tadqiqotida *quite, frightfully, singularly, utterly*

tipidagi ravishlarni ma'lum bir belgining elativ yoki to'la darajadagi namoyon bo'lishini ifodalashda so'z ma'nolarini kuchaytiruvchi vosita deb qaraydi. Masalan: very serious, quite ready, frightfully amusing, singularly sweet. Har ikki tadqiqot asosan kuchaytiruvchi ravishlarga bag'ishlangan bo'lib, boshqa vositalar xususida fikr bildirilmaydi. F.Shevchenkoning tadqiqotlarida intensivlikning modallik va ekspressivlik hodisalariga munosabati o'rganiladi.

2.2. Ingliz tilidagi intensifikatorlarning semantik va pragmatik xususiyatlari

Intensifikatorlarning ma'nolari haqida yuqorida bahs yuritildi. Endi ularning pragmatik xususiyatlari to'xtalmoqchimiz. Avvalambor tarjimada pragmatika nimani anglatishini eslatib o'tmay hech iloji yo'q degan fikrdamiz. Umuman olib qaraganda "pragmatika" termini fanga 1930 yillarning so'ngida Charlz Morris tomonidan kiritilgan bo'lib, pragmatika bu - til vositasi hamda undan foydalanuvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatdir. So'zni tarjima qilishdan avval uning pragmatik mazmuni, ya'ni stilistik xususiyatlariga e'tibor qaratish lozim. Chunki tarjimon tanlagan so'z kontekstda stilistik jihatdan mos tushmasligi ehtimoli ham muhim jihat sifatida hisobga olinishi kerak. Pragmatik aspektlar tarjimada asosan muayyan xalq madaniyati bilan bog'liq ravishda aks etadi. Bunga misol tarzida Hols Mantiyarrining nazariyasida ilgari surgan g'oyasiga e'tibor qilishni lozim deb hisoblaymiz. Uning ta'kidlashicha, tarjima asar mazmuni hamda uning tarkibining qanday bo'lishini tarjimon ixtiyoriy ravishda tanlamog'i lozim, chunki bu uning asliyatda ma'lum bir jumlaning qanday qabul qilishi va uni qanday tarjima qilish lozimligiga uzviy aloqador sanaladi. Darhaqiqat,

asliyat va tarjima o'rtasidagi munosabatlar nafaqat ikki til balki ikki turli xil madaniyatlarning uyg'unlashuv munosabatidir. Intensifikatorlar tadqiqi jarayonida ularning pragmatik jihati shuning uchun ham alohida ahamiyatlidir.

Ingliz tilida esa E.Konig "Intensifiers", Volker Gast & Peter Siemund "Rethinking the relationship between SELF-intensifiers and reflexives" risolalari va boshqa manbalar asosida ingliz tilida intensifikatorlarni to'rt turga bo'linishi ta'kidlanadi ya'ni:

- 1) adnominal.
- 2) umumiy ravishli.
- 3) xususiy ravishli.
- 4) xususiy egalik.

Adnominal tur:

Writers themselves, rather than their works, should be examined for their sense of social responsibility.

Asarlaridan ko'ra ko'prok yozuvchilarning o'zlari jamiyat oldida ma'suldirlar.

Umumiy ravishli tur:

Mrs.Dalloway wanted to buy the flowers herself.

Dallovay xonim gullarni o'zi sotib olishni xohladi.

Xususiy ravishli tur:

If he's busy breaking the rules *himself*, he could hardly demand that they do otherwise.

Agar qoidalarni uning o'zi xam buzganda, ulardan aksincha bajarishni talab qilgan bo'lardi.

Xususiy –egalik tur:

This is a matter between you and your own conscience.

Bu sizning vijdoningizga havola.

Bu to'rt tur barcha tillarda ham muntazam uchramaydi.

Misollarning o'zbek tilidagi tarjimasiga e'tiboringizni qaratmoqchimiz.

Birinchi misolimizda o'zbek tilidagi kabi o'zlik olmoshi intensifikator vazifasini bajarib, qiyoslashni ifodalamoqda.

Ikkinchi misolimizda tanholik ma'nosini ta'kidlamoqda.

Uchinchi misolda aynanlik ifodalanmoqda.

To'rtinchi misolda esa ta'kid ma'nosi kuchaytirilmoqda.

Ma'no va urg'u jihatdan intensifikatorlar sifat va kuchaytiruv yuklamalaridan katta farq qiladi. Ular doimo urg'u oladi. R.Ekkard va D.Xaullar fikriga ko'ra, intensifikatorlar urg'u olmaganida edi, ular belgining bir turi sifatida talqin qilingan bo'linar edi.

Intensifikatorlarning semantik xususiyati shundaki, mustaqil ma'no anglatgani holda, bir paytning o'zida modallik kategoriyasiga ham ega bo'ladi. Ular ko'pincha o'z "doimiy hamroxlarga" (ingliz tilida ot va olmoshlar bilan) ega.

2.3. Ingliz tilida intensivlikning turli chatlarda namoyon bo'lishi

Mustaqil ma'noga ega bo'lgan so'zlar bir bo'g'inli yoki ko'p bo'g'inli bo'lishi mumkin, bunda bir bo'g'inli so'zlarda dinamik urg'u orqali ma'no kuchaytirish o'sha so'z tarkibidagi unli tovushni kuchli talaffuz qilish bilan ifodalanadi. Masalan: Come here — "tez kel bu yoqqa", Be quick — "tezroq bo'l".

Qo'shma ot va qo'shma sifatlarda esa, tarkibidagi har ikki so'z urg'u oladi, va ayniqsa birinchi so'zning unli tovushi kuchli talaffuz etiladi. Misol uchun, Open-handed — "qo'li ochiq, saxiy". Agar bu so'z birikmasini har ikkala qismida urg'u bilan talaffuz etsak, ya'ni Open-handed, "nihoyatda qo'li ochiq, juda saxiy" degan ma'no anglashiladi.

Ko'p bo'g'inli so'zlarda esa kuchaytirishni amalga oshirish uchun ushbu so'zlarni bir necha zarb urg'usi bilan talaffuz qilish va bo'g'inlarga ajratish yordam beradi.

Bundan tashqari, ingliz tilida undosh tovushlarni cho'zib talaffuz qilish orqali ham so'zning ta'sirini oshirish mumkin, ayniqsa jarangli undoshlar orqali bu tez-tez kuzatiladi. Masalan, Brilliant so'zini "b-b-brilliant" tarzida aytish orqali "haqiqatan ajoyib" degan kuchli ma'no yuklanadi. Shunga o'xshab, "I l-l-love that idea" iborasida undoshni cho'zib talaffuz qilish sevgini kuchaytiradi.

Jarangsiz undoshlarni cho'zish ham ayrim holatlarda ta'sirni oshirishi mumkin. Masalan, Terrible so'zini "t-t-terrible" deb talaffuz qilish orqali "o'ta dahshatli" degan ma'noni kuchaytirish mumkin. Shu kabi holda It's gross iborasini "g-g-gross" tarzida talaffuz etish ham yuqori darajadagi nafratni ifodalaydi.

Rus tilida esa, tadqiqotchi M.I. Matushevichning fikriga ko'ra, unlilarni cho'zish ijobiy his-tuyg'ularni kuchaytirsa, undoshlarni cho'zish salbiy his-tuyg'ularni ifodalashda qo'llaniladi. Masalan: 1. Он такой м-м-мягкий, добрый человек (U juda yoqimli, yaxshi inson); 2. Ч-ч-чушь собачья! (Mutlaqo bema'ni!).

Buyruq-istak mayli shaklidagi gaplarda unlini kuchli talaffuz etish va uni cho'zish orqali ma'no kuchaytirish ingliz tilida boshqa-boshqa hodisalarga nisbatan qo'llanadi:

a) unlini kuchli talaffuz etish do'q, po'pisa, buyruqni ifodalaydi;

b) unlini cho'zish istak, iltimos, yolvorish ma'nolarini ifodalaydi. Masalan: Don't tell him – unga aslo aytmang (yomon bo'ladi). Do-o-o-n't tell him = please do-o-o-o-n't - iltimo-o-o-o-s unga aytmang.

No – yo‘q so‘zidagi unli kuchli talaffuz etilsa ham, cho‘zib talaffuz etilsa ham inkor ta‘kidi kuchayadi. Kuchli talaffuz etilganda gap tugagan hisoblanadi, uning davomi nazarda tutilmaydi. Masalan: Will you go there with us? – Biz bilan u yoqqa borasizmi? No! – Yo‘q (gap tamom). Unlini cho‘zganda esa gapning davomi bo‘lishi mumkin.

Undov so‘zlarda fonetik usul bilan ma‘no kuchaytirish his-tuyg‘uga muvofiq bo‘ladi. Masalan, Oh!, Ah!, Pooh!, Dear me!, God knows!.

Son so‘z turkumiga oid so‘zlarda ham fonetik usulda ma‘no kuchaytirish hodisasi uchraydi. Bunda ma‘no kuchaytirish so‘zlovchining his-tuyg‘usi bilan bog‘liq holda voqelanadi. Masalan: Two students were absent yesterday.

Ten, hundred, thousand kabi so‘zlarda ma‘no kuchaytirish urg‘uni kuchli talaffuz etish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Shuni qayd etish kerakki, ma‘no kuchaytirishda nafaqat urg‘u, balki so‘zlarning leksik ma‘nosi ham katta ahamiyatga ega. Masalan: I told you hundred times – Senga men necha yuz marta aytganman.

Taqlidiy so‘zlarda unli yoki undoshni cho‘zish hamda kuchli talaffuz etish orqali so‘z ma‘nosini kuchaytirish mumkin. Masalan, unlini kuchli talaffuz qilish: ding-dong, clink, tinkle, splash, bubble; unlini cho‘zish: ding-doooong, moo-mooo; undoshni cho‘zish: mew-mewww, purr-purrr.

S.V.Voroninning ta‘kidlashicha, taqlidiy so‘zlarda tovush orttirilishi ma‘no kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

Intonatsiya vositasida nutq emotsional - ekspressivlikka ega bo‘ladi. Ohang nutqni jonli va ifodali qilishga yordam beradi. Qaysi so‘zga diqqat tortiladigan bo‘lsa, o‘sha so‘z pauza orqali ajratiladi. Temp, tembr, urg‘u kabi intonatsiya komponentlari ham nutqni ekspressiv, ifodali qilishda katta ahamiyatga ega.

Agar soʻzning oxiri baland ovoz bilan talaffuz qilinsa, u shubha, ishonchsizlik, hayratlanish kabi holatlarni ifodalaydi. Masalan: He is a student.

Soʻzlovchi nutq jarayonida mazmun jihatidan muhim deb hisoblagan soʻzni taʼkidlab, baland ovozda talaffuz qilib, tinglovchining diqqatini aynan oʻsha soʻzga qaratadi. Bunday holatda bevosita logik urgʻu qoʻllanadi. Ushbu urgʻu yordamida gap ichidagi istalgan soʻzni taʼkidlab, boʻrttirish mumkin. Masalan: She gave me the book yesterday – "U menga kitobni aynan kecha berdi."

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilida fonetik darajadagi intensivlik unli va undosh tovushlarni choʻzish, kuchli talaffuz qilish, intonatsiya va uning turli komponentlaridan foydalanish orqali ifodalanadi.

Maʼno kuchaytirishning **morfologik usuli** deyilganda soʻz shakli yoki morfema yordamida maʼno kuchaytirilishi tushuniladi. Yuqorida qayd etib oʻtganimizdek, kuchaytirish (intensivlik) asosan predmet va harakat belgilariga, harakatning oʻziga va soʻzlovchining ruhiy holatiga, his-tuygʻusi bilan bogʻliq boʻladi. Shunga koʻra, ravish va feʼl soʻz turkumlariga oid soʻzlar maʼno kuchaytirish uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Maʼno kuchaytiruvchi morfemalar boshqa soʻz turkumlarida ham, oz miqdorda boʻlsa-da, uchraydi. Bu usuldagi maʼno kuchaytiruvchi vositalar va ularning xususiyatlarini soʻz turkumlari boʻyicha qarab chiqishni lozim topdik.

Sintetik shakldan tashqariga chiqib, maʼno kuchaytirish qoʻllanilishi mumkin. Masalan: "Bigger and bigger!" he shouted as the balloon kept growing. (U shunchalik hayratda qoldiki, vaqtincha toʻgʻri gapira olmay qoldi).

Tadqiqot davomida aniqlangan maʼlumotlarga koʻra, sifat, ot, feʼl soʻz turkumlariga tegishli soʻzlarning maʼnosini

kuchaytirishda quyidagi prefikslar ancha faol ishlatiladi. Quyida bunday prefikslar bilan shakllangan soʻzlar misolida maʼno kuchaytirish koʻrsatilgan:

- superhero – oddiy insondan koʻra kuchli va maxsus qobiliyatlarga ega boʻlgan qahramon;

- supercharger – dvigatelga kuch qoʻshish uchun ishlatiladigan mexanik qurilma;

- hyperactive – juda koʻp harakat qiladigan yoki giperfaol boʻlgan kishi yoki bola;

- hypersonic – tovush tezligidan bir necha barobar tez harakat qiladigan narsa;

- hyperrealistic – juda haqiqatga yaqin boʻlgan sanʼat asari yoki surat;

- overestimate – biror narsaning qadrini yoki qiymatini ortiqcha baholash;

- overthink – haddan tashqari koʻp va chuqur oʻylash.

Out- va over- prefikslari sifat, ot va feʼllarga qoʻshilib, ushbu soʻzlarning maʼnosini kuchaytirishga xizmat qiladi. Misollar:

- outshine – kimnidir yoki nimanidir oʻz mahorati yoki muvaffaqiyati bilan ortda qoldirish: He always tries to outshine his colleagues.

- outsmart – kimnidir aql bilan yengish: She managed to outsmart her competitors in the business deal.

- outgrow – biror narsadan katta boʻlish yoki undan oʻsib ketish: He outgrew his childhood fears.

- outnumber – kimnidir yoki nimanidir son jihatidan oshib ketish: The enemy forces were outnumbered by the allied troops.

- overestimate – biror narsani yoki kimnidir qadrini ortiqcha baholash: They overestimated the value of the property.

● overexert – haddan tashqari ko‘p harakat qilish yoki o‘zini charchatish: He overexerted himself during the race and had to stop.

● overeat – haddan tashqari ko‘p ovqatlanish: He regretted overeating at the buffet.

● overrule – biror qarorni bekor qilish yoki ustidan chiqish: The judge overruled the objection.

● overweight – ortiqcha vaznga ega bo‘lish: He was concerned about being overweight and started a diet.

● oversee – nazorat qilish yoki biror jarayonni boshqarish: She was assigned to oversee the new project.

Ultra- va extra- prefikslari so‘z ma’nosining g‘ayrioddiy tarzda kuchliligini ifodalash uchun ishlatiladi. Misollar:

● ultrafast – juda tez yoki favqulodda tezlikda: The ultrafast internet connection made downloading large files easy.

● ultrasensitive – juda yuqori darajada sezgir: This camera is ultrasensitive to light, capturing even the faintest details.

● ultralight – juda yengil: He packed an ultralight tent for his hiking trip.

● extravagant – ortiqcha, juda ko‘p yoki haddan tashqari: She has an extravagant taste in fashion.

● extraordinary – juda noodatiy yoki hayratlanarli: He gave an extraordinary performance in the play.

● extraterrestrial – Yer sayyorasidan tashqaridagi narsalar bilan bog‘liq: Scientists are searching for extraterrestrial life.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, multi- prefiksi predmetlar miqdorining ortiqligini ifodalash orqali ma’no kuchaytirish vazifasini ham bajarishi mumkin. Multi- prefiksi turli xil xususiyatlarni yoki ko‘p funksiyalilikni ifodalashda qo‘llaniladi:

● Multifunctional - bir nechta vazifani bajara olish xususiyatiga ega bo‘lgan.

● Multinational - turli millat vakillarini o'z ichiga oluvchi yoki ko'p mamlakatda faoliyat yurituvchi kompaniya.

Kichik hajm yoki miqdorni ifodalashda esa Micro- va mini-prefikslari keng qo'llaniladi:

● Microscope - juda mayda obyektlarni ko'rish uchun mo'ljallangan asbob.

● Microorganism - oddiy ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan darajadagi kichik tirik mavjudot.

● Microworld - faqat mikroskop orqali ko'rinadigan miniatyura dunyo.

● Miniature - asl nusxaning kichraytirilgan varianti yoki shakli.

● Mini-skirt - tizzadan yuqoriroq tugaydigan qisqa yubka.

Tahlil natijasiga ko'ra en- prefiksi ham ma'lum darajada ma'no kuchaytirish xususiyatiga ega ekanligi aniqlandi:

1. engrossing – extremely interesting; an engrossing story.

2. enrage – to make someone extremely angry.

3. enraptured – enjoying something very much.

4. enrich – to make something better or more enjoyable:

Doing volunteer work has enriched my life.

Up-, upper-, mega-, sub- prefikslari ham so'z ma'nosini ma'lum darajada kuchaytirishi mumkin:

Mega- prefiksi ko'pincha katta hajm yoki yuqori darajani ifodalashda ishlatiladi:

● Megastar - juda mashhur va muvaffaqiyatli aktyor yoki musiqachi.

● Megabucks - nihoyatda katta miqdordagi pul.

● Megastore - turli xil mahsulotlarni taklif etuvchi juda katta do'kon.

● Sub- prefiksi esa kichikroq yoki asosiy guruhning bir qismi bo'lgan birlik yoki guruhni anglatadi:

Subgroup - katta guruh ichida tashkil etilgan kichik guruh; masalan, bemorlarni ikkita asosiy kichik guruhga bo'lish mumkin.

Sublime - juda yaxshi yoki go'zal; butun muhit buyuk musiqaning go'zalligi bilan to'ldi.

Up- va upper- prefikslari so'z ma'nosini kuchaytirib, yuqori yoki yuqoriroq darajani anglatadi:

- Upgrade - kompyuter yoki boshqa qurilmani kuchliroq yoki samaraliroq holatga olib kelish; masalan, tizim mijozlar talablariga mos ravishda yangilandi.

- Upraised - odatiy darajadan yuqoriroq pozitsiyada ushlab turilgan.

- Uproar - 1) biror narsaga nisbatan qattiq jamoatchilik tanqidi; 2) odamlarning kuchli hayqirig'i bilan yuzaga kelgan shovqin; masalan, hukm e'lon qilingach, butun sud zali shovqin bilan to'ldi.

- Uppermost - ma'lum bir vaziyatda eng muhim yoki dolzarb narsa; bo'ron paytida omon qolish eng yuqori vazifaga aylandi.

- Uppercut - jag' yoki qorin sohasiga qattiq zarba berish usuli.

Faktik til materialining tahlili ko'rsatadiki, so'zlarning salbiy bo'yog'ini kuchaytirishda un-, in-, dis-, mis-, ir-, im-prefikslari juda faol qo'llaniladi. Misollar:

- unbearable – juda kuchli og'riq yoki hissiyot bo'lib, unga chidab bo'lmaydi: The heat was unbearable.

- unbending – o'z fikrini yoki e'tiqodini o'zgartirishni xohlamaydigan, juda qat'iy: He was known for his unbending attitude.

- unforgivable – juda yomon va kechirib bo'lmaydigan: His actions were absolutely unforgivable.

●unholy – juda yomon yoki nomaqbul: How did we get into this unholy mess?

●unimaginable – tasavvur qilish juda qiyin: The destruction was unimaginable.

●incalculable – o'lchab bo'lmaydigan darajada katta yoki buyuk: The environmental damage is incalculable.

●incomparable – juda yaxshi bo'lib, boshqa hech narsa bilan solishtirib bo'lmaydigan: Her beauty is incomparable.

●disarray – odamlarda chalkashlik yoki biror narsa noto'g'ri tashkil qilingan vaziyat: The room was in complete disarray.

●disgust – biror narsani juda yoqtirmaslik hissi: The sight filled him with disgust.

●irreproachable – juda halol va axloqiy jihatdan yaxshi, tanqid qilish mumkin bo'lmaydigan: Her character is irreproachable.

●irresistible – juda kuchli bo'lib, nazorat qilish yoki mag'lub etish mumkin bo'lmaydigan: The team's form this season has been irresistible.

●immoderate – o'ta ko'p yoki me'yoridan ortiq: His spending habits were immoderate.

●implacable – juda qattiq g'azablangan yoki qat'iy his-tuyg'ularni o'zgartirish imkonsiz: He faced his implacable enemy with determination.

Yuqoridagilardan tashqari, **-ful**, **-ly** suffikslari va **up**, **in** postpozitivlari yordamida ham so'z ma'nosini kuchaytirish mumkin. Quyida bunday misollar keltirilgan:

●wash up – idish-tovoqlarni yuvish va tartibga solish: We should wash up after dinner to keep the kitchen clean.

●break up – biror narsani yoki munosabatni tugatish: They decided to break up after years of relationship issues.

●cheer up – kimningdir kayfiyatini yaxshilash yoki ko‘tarish: I brought you some flowers to cheer you up.

●lock up – biror narsani yoki joyni qulflash: Make sure to lock up the house before leaving.

●peaceful – juda tinch va xotirjam: The peaceful countryside was the perfect place for a vacation.

●graceful – juda nafis va go‘zal harakat qiladigan: The dancer’s movements were graceful and captivating.

●beautiful – juda chiroyli va jozibali: The sunset over the ocean was simply beautiful.

Misollar tahlili shundan dalolat beradiki, morfologik usulda ma’no kuchaytirish ot, sifat, fe’l so‘z turkumlarida yaxshi rivojlangan. Eng faol prefikslar sifatida super-, over-, out larni, suffikslardan esa -ful, -ly ni qayd etish mumkin. Tadqiqotimizda so‘zlarning salbiy ma’no belgilarini kuchaytirishda un-, in-, dis-, mis-, ir-, im- prefikslari faol ekanligi aniqlandi.

Leksik sathdagi ma’no kuchaytirish kuchaytiruvchi ravishlar (intensifikatorlar), kuchaytiruvchi sifatlar, kvantor so‘zlar, kuchaytiruvchi frazeologik birliklar, sifat va fe’llarning sinonimik qatori hamda alohida so‘zlar yordamida voqelanadi. Harakat va holat ma’nosini kuchaytirishni sinonimiya usulidan foydalanib ham amalga oshirish mumkin. Masalan, ingliz tilida harakat tezligi va intensivligini yanada kuchaytirish uchun raining o‘rniga pouring so‘zini qo‘llash mumkin.

Misol: pour yoki pour down – juda kuchli yomg‘ir yog‘ishi: The thunder and lightning stopped, but it continued to pour.

Yana boshqa misol: run o‘rniga sprint ishlatish mumkin, bu harakatning tezligini kuchaytiradi: He didn’t just run, he sprinted to catch the bus.

Yoki: **talking** o'rniga **chatting** yoki **gossiping** ishlatib, suhbatning qizg'inligini yoki norasmiyligini ifodalash mumkin: They weren't just talking, they were gossiping for hours.

Bu sinonimlar harakatning kuchayish yoki tezlashishini ta'kidlab beradi.

Sinonimik qatorlar ko'proq sifat va fe'l so'z turkumlariga xosdir.

Masalan: big – enormous – gigantic

Much, far, by far, still, even so'zlarini sifat daraja shakllaridan oldin qo'llash orqali ham so'z ma'nosi kuchaytiriladi: Much thr biggest/best etc – a lot bigger, better, etc than all the others: I got lots of lovely presents, but yours was much the nicest.

Tadqiqotning ko'rsatishicha, “possible” so'zini sifat darajasidan keyin qo'llash ham so'z ma'nosini ma'lum darajada kuchaytiradi. Masalan:

He arrived at the worst possible time.

Rang-tus ma'nosini kuchaytirishda dark so'zidan foydalaniladi.

Masalan: dark blue / green / brown / red : a dark blue jacket.

Ingliz tilida predmetlarning ko'pligini ifodalash uchun kvantor so'zlar qo'llaniladi. Odamlar sonining ko'pligini ifodalashda crowds of, a group of, loads of kabi iboralar va dozens, scores, billions kabi numerativlar ishlatilishi mumkin:

● crowds of – juda ko'p odamlar: Crowds of people gathered for the concert.

● a group of – odamlar guruhi: A group of students went on a field trip.

● loads of – juda katta miqdorda narsalar: I have loads of work to finish before dinner.

●dozens of – juda ko‘p sonlar yoki narsalar: We received dozens of invitations for the event.

●scores of – ko‘plab odamlar yoki narsalar: Scores of birds flew across the sky.

●billions of – juda katta sonli odamlar yoki narsalar: Billions of stars can be seen in the night sky.

Vaznni kuchaytirishda kilogram yoki pound, hajmni kuchaytirishda liters kabi leksemalar ishlatiladi:

It felt like a ton of weight was lifted off my shoulders.

He drank liters and liters of water after the race.

A lot of iborasi yordamida ham ma‘no kuchaytirish mumkin:

He looks a lot like his brother.

I gave her lots of advice before the trip.

Thousand times iborasi yordamida ham kuchaytirish amalga oshiriladi:

I’ve told you this a thousand times!

Intensivlik esa really, quite, completely, badly kabi leksemalar orqali ham kuchaytiriladi va ular ko‘pincha very o‘rnida ishlatiladi:

I’ll do whatever I really want to!

The weather’s been quite terrible, hasn’t it?

Dead so‘zi esa ko‘pincha sifatlar bilan birga qo‘llanadi: dead serious, dead quiet, dead wrong:

You are dead right.

She was dead sure about her decision.

Bu o‘zgartirilgan misollar orqali harakat va holatning intensivligi va ko‘pligini turli xil leksemalar yordamida kuchaytirish mumkin.

Tadqiqotimiz shuni ko‘rsatadiki, so‘z ma’nolarini kuchaytirishda *frazeologik birliklardan* ham keng foydalaniladi. Frazeologik birliklar semantikasida til egasi bo‘lgan xalqning

madaniyati, urf-odati, kasbi, turmush tarzi, o'tmishi hamda voqelikka munosabati kabilar aks etadi.

Ingliz tilida frazeologizmlarning intensivlik ifodalash xususiyatlari atroflicha o'rganilgan.

Tilshunoslikda hozirgi kunga qadar frazeologiya keng va tor ma'noda tushunilmoqda. Frazeologiyani keng doirada tushunuvchi olimlar uning tarkibiga maqollar, matallar, aforizmlar va boshqa tipdagi turg'un birliklarni kiritadilar. Tor doiradagi frazeologiya tarafdorlari esa yaxlit ko'chma ma'noli turg'un birliklarni o'rganish bilan chegaralanadilar. Ular o'zlarining frazeologik tadqiqotlarida faqat birikmaga teng bo'lgan frazeologik birliklarni tadqiq etib, maqol va matallarni frazeologiya obyekti sifatida baholamaydilar.

A.V.Kunin frazeologik birliklarni guruhlarga bo'lib o'rganar ekan, to'rtinchi guruhga kommunikativ frazeologik birliklarni kiritgan, maqol va matallar ham xuddi shu yerdan o'rin olgan. A.V.Kuninning fikricha, "Frazeologik birliklar butunlay yoki qisman ko'chma ma'noni ifodalagan turg'un birliklardir".

Biz tadqiqotimizda frazeologik birliklarning intensivlik semasini ularning semantik definityasidagi intensivlik markerlari orqali aniqladik.

Masalan:

bone tired – *juda charchagan: After working all day, I was bone tired and just wanted to sleep.*

heavy load – *juda katta va og'ir narsa: Carrying all those books felt like a heavy load on my back.*

harp on something – *biror mavzuga ortiqcha e'tibor qaratish: He keeps harping on the same issue during every meeting, and it's getting frustrating.*

Frazeologik birliklarni struktur jihatdan o'rganishga ko'plab tilshunoslar munosib hissa qo'shganlar. Mazkur tadqiqotlarda

frazeologik birliklar struktur jihatdan atroflicha yoritilgan. O'rganilayotgan frazeologik birliklarni quyidagi modellarda tahlil qilish mumkin:

Adj + N:

- blind drunk – butunlay mast: He came home blind drunk after the party.

- a heavy burden – katta va og'ir narsa: The responsibility was a heavy burden on his shoulders.

- a big meal – katta miqdorda ovqat: He had a big meal at the restaurant and couldn't eat another bite.

- strong liquor – juda kuchli alkogolli ichimliklar: He prefers strong liquor to beer.

- hard substances – addiktsiyaga tez olib keluvchi kuchli moddalar: He was warned about the dangers of hard substances like cocaine.

- a strong breeze – kuchli shamol: The strong breeze made it hard to walk along the shore.

- a crying disgrace – juda katta uyat: It's a crying disgrace that they let the school fall into such disrepair.

- an unexpected talent – kutilmagan qobiliyatga ega odam: She turned out to be an unexpected talent in the art competition.

- a great height – katta balandlik: He stood on the edge of a great height, looking down at the valley below.

- a quick stop – juda qisqa tashrif: We made a quick stop to see our friends before continuing our journey.

- a rare chance – juda yaxshi imkoniyat: This job offer is a rare chance to advance my career.

- high praise – juda maqtovli fikrlar: She received high praise for her presentation.

●a frequent drinker – ko‘p miqdorda ichimlik iste'mol qiladigan odam: He's known as a frequent drinker at the local pub.

●breaking news – juda yangi va muhim yangilik: The breaking news of the election results spread quickly.

●sharp pain – tez va o'tkir og'riq: He felt a sharp pain in his knee while running.

●a throbbing headache – juda qattiq bosh og'rig'i: She had a throbbing headache after a long day at work.

V + N :

●to make big money – juda ko‘p pul ishlash: He's making big money with his new business venture.

●to do someone a great favor/harm – kimgadir katta foyda yoki zarar yetkazish: If this rumor spreads, it could do her reputation a great deal of harm.

●Take a break – it will do you a great favor in restoring your energy.

●To be + prepositional phrases:

●to be at one's peak/lowest – eng yuqori yoki eng past holatda bo'lish: She's at her peak when she's handling multiple projects.

●to be baffled (about something) – juda hayron bo'lish, nimani qilishni bilmaslik: He was baffled by how to solve the problem.

●to go to great lengths to do something – katta harakat qilish: She went to great lengths to prepare the surprise party.

●to be at wit's end – nimani qilishni bilmay qolish: I'm at my wit's end with this problem!

●to be in the spotlight – ko‘p e'tibor va ommaviy axborot olish: The celebrity was constantly in the spotlight.

●to be rolling in money – katta miqdorda pulga ega bo‘lish yoki ko‘p pul topish: Since he won the lottery, he’s been rolling in money.

●to be in top shape – juda yaxshi sog‘liqda bo‘lish: After months of training, she’s in top shape.

●to be over the moon (about something) – juda xursand bo‘lish: She was over the moon when she got the promotion.

Intensivlik ifodalovchi frazeologik birliklarning struktur tahlili natijalariga ko‘ra **Adj +N** modelining faolligini qayd etish mumkin.

Frazeologik birliklarning semantik tasnifi olimlar tomonidan har xil mezonlar asosida amalga oshiriladi. Mazkur tadqiqotda biz prof.N.N.Amosovanning tasnifidan kelib chiqib, tahlil qilinayotgan frazeologik birliklarni 2 guruhga bo‘ldik: idiomalar va frazemalar.

Frazemada so‘zning birinchi komponenti o‘z to‘g‘ri ma’nosida, ikkinchi komponenti esa idiomatik ma’noda qo‘llanilib, ular quyidagicha bir-biriga bog‘lanadi:

●to make good money – katta miqdorda pul topmoq: He made good money from his investments.

●strong beverages/liquor – kuchli alkogolli ichimliklar: They were serving strong liquor at the event.

●strong narcotics – eng kuchli giyohvand moddalar, odatda qo‘shadi qiladi: Heroin is considered one of the strongest narcotics.

●a strong breeze – kuchli shamol: There was a strong breeze blowing by the shore.

●a golden chance – yaxshi imkoniyat: This job offer is a golden chance for career growth.

Idiomada har ikki komponent ham idiomatik ma’noda bo‘ladi:

●a fine mess – katta chalkashlik, noto‘g‘ri holat: This situation is a fine mess, and I don't know how to fix it.

●pretty much the same – deyarli bir xil: The meeting was pretty much the same as the last one.

●nearly done – deyarli tugallangan: He’s nearly done with his project.

●to be on cloud nine – juda baxtli bo‘lish: She was on cloud nine after hearing the good news.

●to pass with flying colors – biror narsani juda muvaffaqiyatli yakunlash: She passed the exam with flying colors.

●to come out on top – eng muvaffaqiyatli natijaga erishmoq: He came out on top in the competition.

●to be eager to help – yordam berishga juda intilmoq: They were eager to help with the preparations.

●to gain the upper hand – eng kuchli pozitsiyaga ega bo‘lmoq: The team gained the upper hand after the second half.

●to lose one's temper – juda jahli chiqmoq: He lost his temper when he heard the bad news.

●to laugh uncontrollably – juda ko‘p va qattiq kulmoq: We laughed uncontrollably at the joke.

●to make a fuss over nothing – kichik narsadan katta muammo qilmoq: He made a fuss over nothing during the meeting.

●to finish in no time – juda tezda tugatmoq: She finished the assignment in no time.

●to work hard – juda ko‘p mehnat qilmoq: They had to work hard to meet the deadline.

●invisible ice – yo‘lda ko‘rinmaydigan muz: The invisible ice made driving dangerous.

●to feel in top health – juda sog'lom his qilmoq: He felt in top health after his morning workout.

●to see things after drinking – haddan tashqari ichimlikdan so'ng xayolot ko'rmoq: He said he started to see things after too much drinking.

●to be nervous – juda asabiy bo'lmoq: She had her heart in her mouth during the presentation.

Intensivlikni ifodalovchi frazeologik birliklarning tahlili shuni ko'rsatadiki, so'z ma'nosini kuchaytirishda idiomalar ustunlikka ega.

Faktik til materialining tahlili komparativ frazeologik birliklar ham intensivlik ifodalovchi faol vositalar ekanliklarini ko'rsatdi. Komparativ frazeologik birliklar turli maqsad ifodalarini berishda faol qo'llanadi. Masalan, o'ta ko'p ovqat iste'mol qiladigan kishilarga nisbatan quyidagi komparativ frazeologik birliklar ishlatiladi.

Kishi gavdasining o'ta semizligini ifodalash uchun as fat as butter, as fat as a pig kabi iboralar qo'llaniladi. Shuningdek, inson xarakteri yoki uning xususiyatlarini ifodalashda quyidagi komparativ frazeologik birliklar bilan bog'lanish kuzatiladi:

●to eat like a lion – juda ko'p ovqat yemoq: After the workout, he ate like a lion.

●to race like a rocket – juda tez harakatlanmoq: The car raced like a rocket down the road.

●to run like a gazelle – juda tez yugurmoq: She ran like a gazelle across the field.

●to sleep like a baby – juda tinch va chuqur uyquda bo'lmoq: After the long day, he slept like a baby.

●to swim like a shark – juda yaxshi suzmoq: She swims like a shark in the swimming pool.

●to work like an ant – juda mehnatkash bo'lmoq: They worked like ants to complete the task.

Ko'rib o'tganimiz singari, leksik sathdagi so'z ma'nosini kuchaytirishda frazeologik birliklar ham muhim o'rin tutadi. Hozirgi kunda frazeologik birliklarni kognitiv semantika, lingvokulturologiya nuqtai nazaridan o'rganishga e'tibor ortib bormoqda. Zero, frazeologik birliklar milliy xarakterga ega bo'lib, ma'no intensivligini ifodalashda har bir xalq o'z frazeologik birliklar tizimiga ega.

Ma'lumki, intensivlikni ifodalashda **stilistik troplarning** roli nihoyatda kattadir. So'zlovchi stilistik troplar yordamida o'z fikrini tinglovchiga aniq, bo'rttirib, kuchaytirib ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, Despite all her doubts – which were as numerous as stars in the sky – she still felt content.

“And then Tom jumped up like a startled rabbit and shouted, “Oh no!”

The sound of her laughter was like a melody to his ears.

Qiyoslash orqali ma'no kuchaytirishda ko'pincha zoosemizmlar, florizmlar, kiyim-kechak nomlaridan keng foydalaniladi. Masalan:

Mr. Johnson frowned deeply, his expression resembling that of a confused bulldog. Jane's golden hair fell smoothly over her shoulders, fitting her head like a silk scarf. Tom noticed a tall figure, his face rugged and strong, lion-like, with a hint of mischief sparkling in his green eyes.

Epitet ma'no kuchaytiruvchi stilistik vosita bo'lib, u narsa va shaxsning sifati va belgisini kuchaytiribgina qolmay, balki uning ma'nosini to'laroq, aniqroq ifodalaydi, emotsional ta'sirini kuchaytiradi. Epitet vositasida kishida predmet yoki voqea haqida aniq tasavvur tug'iladi va bu uning ko'z o'ngida yaqqol

gavdalanadi. Shu bilan birga, epitet narsa va voqelikdagi mavjud belgini ko'rsatibgina qolmay, u ifodalashining ta'sirchan bo'lishini ham ta'minlaydi.

Ba'zan ifodalilikni yanada kuchaytirish maqsadida metaforik epitet keng qo'llaniladi. Bunda kishi, narsa, hodisaga xos belgi, xususiyatlar ko'chirilgan holatlarda bo'ladi.

Ekspressivlik ifodalovchi vositalardan yana biri metaforadir. Shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda metafora nafaqat stilistik trop sifatida, balki kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan ham tadqiq qilinmoqda. Bu yondashuvda metafora bilish jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan kognitiv mexanizm sifatida o'rganilmoqda. Kontekstual metafora esa narsa-hodisalarga oid tasavvurlarimizni boyitib, nutqni yorqin va ifodali qiladi. Metaforaning muhim xususiyati shundaki, u insonning ichki va tashqi dunyosini birlashtirib, yagona obraz yaratadi.

Metaforada tafakkurning asosini va dunyoni ko'rishning milliy-madaniy xususiyatlarini ko'rish mumkin.

Masalan:

His face was a storm of emotions, flashing with sudden anger and hidden fear.

Her words were daggers, sharp and piercing, leaving everyone silent.

The city was a jungle, alive with chaotic energy and unpredictability.

Bu misollar metaforaning ekspressivlikni oshirishdagi ahamiyatini va uning tasviriy kuchini ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash lozimki, boshqa stilistik troplar (antonomasiya, giperbola, litota va boshqalar) qo'llanilish jihatdan kam uchrasa - da, ular ham nutqni ta'sirchan qilishda va ma'noni kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega. Quyida mazkur troplar xususida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Antonomasiya atoqli otlarni turdosh otlar sifatida qo'llash usuliga asoslangan stilistik vositalardan biri bo'lib, so'zlovchining emotsional, baho munosabatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Hozirgi kunda mazkur vositani kognitiv semantika nuqtai nazaridan tahlil etishga qiziqish ortib bormoqda.

Antonomasiyaning kognitiv mohiyati uning biror xalqning tarixiy, diniy, adabiy bilimlari haqida muayyan ma'lumotlarni ifodalay olishida namoyon bo'ladi. Masalan, quyidagi misolda O.Uayld "The picture of Dorian Gray" romanining bosh qahramonini mazkur vosita orqali tasvirlaganini ko'ramiz: *...and this young Adonis, who looks as if he was made out of ivory and rose-leaves.* **Young Adonis** iborasi yunon mifologiyasidagi Adonis obrazi bilan bog'liq. Yunon mifologiyasida Adonis obrazi shu qadar taraqqiy qilganki, ingliz tilining izohli lug'atlarida Adonis – a very attractive young man (chiroyli yosh yigit) ma'nosida qo'llaniladi. Bunday xususiyat o'zbek tilida Yusuf obrazi orqali ifodalanadi. U o'zbek badiiy adabiyotida go'zallik timsoli hisoblanadi.

Gul der: "Men Yusufman Misr-chamanda,

Yoqutdan qimmatroq zar to'la xanda".

Dedim: "Yusuf bo'lsang, ko'rsat nishona".

Dedi: "Boq, qonlidir ko'ylagim tanda".⁹

(Ruboiy)

Ba'zan biror shaxsning juda uddaburonligini ifodalashda uni Sherlok Xolmsga o'xshatiladi. Masalan: "I was forgetting that you had such a reputation as Sherlock".

U yoki bu narsa, xususiyat, voqea va belgini o'ta kuchaytirib, bo'rttirib tasvirlash vositalaridan biri giperbola (mubolag'a)dir.

⁹ Umar Xayyom. G'animat damlar, Sharq nashriyoti matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati Toshkent-2008 70-bet

Giperbola orqali ijodkor tasvirlanayotgan narsani goh bo'rttiradi, goh maqtaydi, goh masxaralaydi.

Gapdagi vazifasiga ko'ra intensifikatsiya va giperbola bir-biriga yaqin hodisalar hisoblanadi. Bizning ishimizda giperbola intensivlik ifodalovchi vosita deb qaraladi. Giperbolada ma'noni kuchaytirish darajasi o'ta yuqori ekanligini kuzatamiz:

1. Her family is one aunt about a thousand years old.
2. God, I cried buckets. I saw it ten times.
3. There were about twenty people at the party, most of whom I hadn't met before. The girls were dressed to kill.

Vaqt tushunchasini ifodalashda ham giperbolali iboralar qo'llaniladi. So'zlovchi, ayniqsa, biror vaqt bo'lagini ta'kidlamochi bo'lganda, mazkur usulga ko'proq murojaat qiladi: for hours, months and months, a thousand wakeful nights, all the time in the world .

Nutq ta'sirchanligini va so'z ma'nosini yanada kuchaytirishda *litota* ham muhim rol o'ynaydi. Masalan: 1. Soames with his set lips and squared chin, was not unlike a bulldog. 2. The idea was not totally erroneous; The thought did not displease me.

Shunday qilib, so'z ma'nosini kuchaytirishda stilistik vositalar asosiy o'rinni egallaydi. Bular ichida eng faollari metafora, qiyoslash, epitet, giperbola ekanligini qayd etish mumkin. Stilistik vositalarning so'z ma'nosiga ta'sir darajasini o'rganish ularning kommunikativ mohiyati va asosiga chuqurroq kirib borishga imkon beradi. So'z ma'nolarini kuchaytirishda stilistik vositalarning ishtiroki intensivlik hodisasining stilistik xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Ma'no kuchaytirishning **sintaktik usuli** gap qurilishi va so'z birikmalari orqali amalga oshiriladi. Bu usulning vositalari maxsus sintaktik ifodalar va qurilmalardir. Ma'no

kuchaytirishning sintaktik usuli kommunikatsiyada ham, borliqqa subyektiv munosabat ifodalashda ham ko'p qo'llaniladi. Ma'no kuchaytirishda sintaksis imkoniyatlarining boyligi uning asosiy birligi gap bilan uzviy bog'liqdir. Bunda ritorik so'roq gaplar, inversiya, takror kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ularni sintaktik-stilistik vositalar deb ham yuritiladi. Mazkur vositalarning barchasi gap qolipida, uning sathida shakllanadi. Ana shunga asoslangan holda biz ularni sintaktik usuldagi ma'no kuchaytiruvchi vositalar sifatida tahlil qilamiz.

Sintaktik usuldagi ma'no kuchaytiruvchi vositalardan biri takrordir. Bu vosita ma'noni kuchaytirish, intensivlik ifodalash va emotsionallikni oshirishga xizmat qiladi. So'zlovchi o'z sezgilariga va tajribasiga asoslanib, ma'lum iboraning nutq muhitiga mosligini anglab, sifatni miqdor bilan to'ldirishga harakat qiladi, natijada takror yuzaga keladi.

Masalan:

Stop it! I'm tired of hearing this same thing again and again and again!

She dreamed of distant lands, of adventures yet to come, of mysteries yet to solve.

I'll help you, I'll help you, don't worry!

Bu misollar orqali takrorning ma'no kuchaytirishda qanday ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin.

Inversiya ingliz tili uchun rasm bo'lgan so'z, gapning predikativ qismlari tartibini o'zgartirish orqali mazkur qismlarni ajratib, bo'rttirib, kuchaytirib ifodalashdir.

Gradatsiya ekspressivlikni birin-ketin kuchaytirib borish usulidir. Bunda matndagi har bir ibora yoki so'z o'zidan avvalgisiga nisbatan kuchliroq, ta'sirchanroq bo'lib boradi. Masalan: Threaten him!, Imprison him!,

Torture him!, Kill him!

Ma'no kuchaytirishning sintaktik usulida ritorik so'roq gaplar, polisindenton (ko'p bog'lovchilik), parallelizm kabi vositalar qo'llanish jihatdan kam uchrasa-da, ularning ham nutq ekspressivligini oshirishda o'z o'rinlari bor.

Ritorik so'roq gaplar tinglovchidan to'liq javob talab qilmagan holda, darak gaplarning ta'sirchanligini oshirishga va ularning emotsional jihatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi:

These old ruins, what stories do they hold? These forgotten paths, what secrets have they witnessed?

In all the world, isn't kindness the most valuable? Can you feel the warmth of the sun?

Polisindenton usulida esa and, or, then kabi bog'lovchilarni takror qo'llash orqali nutqning ekspressivligi oshiriladi:

And then, in an instant, he would leap up, and move as swiftly and unpredictably as the wind.

She could write a letter, or call a friend, or take a walk, or simply sit and think, or dream, or plan for the future.

Bu misollar orqali ritorik so'roq va polisindenton yordamida nutqning qanday qilib intensiv va ifodali bo'lishini ko'rsatish mumkin.

Parallelizm usulida sintaktik jihatdan bir xil tuzilgan qurilmalar, so'z va iboralar takrorlanib kelib, nutqning ekspressivligini oshiradi. Misollar:

The wind was cold and biting, the trees bare and stark, the ground frozen and hard.

When the leaves turn golden in the fall, and when the breeze becomes crisp and cool, and when the birds begin to fly south, you know that autumn has arrived.

Bu misollar parallelizmning nutqga qanday kuch va ta'sir berishini ko'rsatadi, har bir ibora bir xil tuzilishda kelib, ifodani kuchaytiradi.

Faktik til materialining tahlili sintaktik usuldagi ma'no kuchaytiruvchi vositalar ichida takrorning faol ekanligini ko'rsatadi. Bu vosita nafaqat yozma nutqda, balki og'zaki so'zlashuv nutqida ham keng qo'llaniladi.

2.4. O'zbek tilida intensifikatorlarning o'rganilishi.

A.Abdullayev ma'no kuchaytirish hodisasini o'zbek tilining fonetik va morfologik sathlari bo'yicha o'rganadi. Bu o'rinda fonetik usuldagi ma'no kuchaytirishda unlini kuchli talaffuz qilish, unlini cho'zish hamda geminatsiya (tovushni ikkilantirish) hodisasidan foydalanish mumkinligi, morfologik usulda esa - lar suffiksining faolligi qayd etiladi .

O'zbek tilida intensivlikni ta'minlovchi usullardan yana biri sintaktik usuldir. Bu usul ayrim sintaktik konstruksiyalar, "turg'unlashib qolgan" birikmalar, ritorik so'roq, inversiya, bo'laklarni takrorlash kabi vositalar orqali ifodalanadi.

Sintaktik usulda ma'no kuchaytirish vositalarining bir ko'rinishi bir o'zakli so'zlarning ayrim elementlar vositasida takrorlanishidan tuzilgan konstruksiyalardir. Bunday konstruksiyalarning otli va fe'lli shakllari mavjud. Biz quyida ot-o'zakli so'zlarning analitik formalari vositasida ma'no kuchaytirish hodisasi haqida to'xtalib o'tmoqchimiz.

I. Bir o'zakli so'zlarning qaratqichli birikmalari. Intensivlikni ifodalovchi bu konstruksiya sifat va o'zida bir oz belgi tasavvurini ham ifodalovchi otningbirikuvidan tuziladi. Bunda bir ot yoki bir sifat aynan o'zi qaratqich-qaralmish formalari vositasida takrorlanadi: *donolarning donosi* kabi. Bir qarashda bu konstruksiya oddiy qaratqichli birikmaga o'xshaydi.

II. Bir o'zakli so'zlarning -mi+san formalari orqali takrorlanishi.

Otdan tuzilgan bunday konstruksiyada belgi bildiruvchi so'z ishtirok etmasada, ammo qandaydir belgi tasavvuri kuchaytiriladi. Shuning uchun ham yuqoridagi misolimizda *eng yaxshi qiz* degan ma'no tushuniladi. Otli konstruksiyalarning ba'zilarida kuchaytirish qanday belgiga nisbatan bo'layotgani aniq emas. Shunga ko'ra, bir necha belgiga ega bo'lgan otlardan tuzilgan konstruksiyalarda kuchaytirish qaysi belgiga nisbatan bo'layotgani noaniqroq bo'ladi. Bir belgili otlardan tuzilganlarida esa konkret bo'ladi. Chunonchi, qiz (shaxs) go'zalligi, aqlliligi, bilimi, zehni, kamtarligi kabi belgilari bilan xarakterlansa, asal (predmet) faqat mazasi bilan xarakterlanadi: bog'misan bog' (umumiy belgi), asalmisan asal (konkret belgi) kabi. Ko'p belgili otdan tuzilgan konstruksiyalarda kuchaytirish umumiy xarakterda bo'lganidan ba'zan uni konkretlashtiruvchi izohlar ham beriladi: *O'zi ham qizmisan qiz-da. **Husnda** ham, **aql**da ham har qanday qizni qochiradi.* (Mir Ammon). Sifatlar bu konstruksiyada otlashgan holda qatnashadi, lekin baribir, kuchaytirish o'sha sifatdan anglashilgan belgiga nisbatan bo'ladi.

Sifatli konstruksiyalarda kuchaytirish har vaqt konkret belgiga nisbatan bo'ladi: **donomisan dono, o'jarmisan o'jar** kabi. Bunday konstruksiyalar metaforik ko'chma ma'nodagi so'zdan tuzilganda kuchaytirish darajasi yana ham ortadi: *toshmisan tosh, lattamisan latta* (kishiga nisbatan xasislik, bo'shanglik ma'nolarida), *asalmisan asal, novvotmisan novvot* (yosh bolaga nisbatan).

Bu konstruksiya komponentlari shu darajada zich birikib ketganki, ular orasiga biror boshqa element qo'shish yoki almashtirish mumkin emas, u yaxlitligicha bir so'zga teng keladi,

sintaktik funksiya jihatidan cheklangan: faqat kesim vazifasida keladi. U yaxlitligicha ot turkumiga o'xshaydi, yakka holda bog'lama va kesimlik formalari bilan o'zgarib, ot kesim vazifasida keladi. Shu bilan birga yordamchi fe'llar va boshqa elementlar bilan kengayib, murakkab ot kesimning ot qismini tashkil etadi: *O'ziyam bog'misan bog' bo'ladiganga o'xshaydi* (Said Ahmad).

III. Bir o'zakli so'zlarning chiqish kelishigi (dan) dan formasi orqali takrorlanishi Bu konstruksiya miqdor-daraja ravishlari, sifat, son, fe'llning sifatdosha formalari tuziladi: ko'pdan-ko'p, birdan-bir, kuchaygandan-kuchaydi kabi.

Bob bo'yicha xulosa

Yuqoridagi intensivlik haqidagi nazariyalardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, har bir tilshunos olim intensifikatorlarga til birligi sifatida e'tibor qaratadi.

Bizningcha esa intensifikatorlar nafaqat til birligi, shu bilan birga nutq birligi hamdir. Chunki ular aynan kommunikatsiya jarayonida o'z vazifasini to'laqonli namoyon etadi.

Intensifikatorlar muloqot jarayonida kommunikativ funksiyani bajargani uchun, ular har bir xalqning milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tadqiq etilishni hamda tarjimada alohida yondashuvni talab etadi.

Ingliz tilida **fonetik usulda** ma'no kuchaytirish unli yoki undoshni kuchli talaffuz etish, cho'zish, bo'g'inlarga ajratib talaffuz qilish hamda intonatsiyaning boshqa komponentlari yordamida ifodalanadi.


Leksik sathdagi ma'no kuchaytirish kuchaytiruvchi ravishlar (intensifikatorlar), kuchaytiruvchi sifatlar, kvantor so'zlar, kuchaytiruvchi frazeologik birliklar, sifat va fe'llarning sinonimik qatori hamda alohida so'zlar yordamida voqelanadi.

Ma'no kuchaytirishning **morfologik usuli** deyilganda so'z shakli yoki morfema yordamida ma'no kuchaytirilishi tushuniladi. Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, kuchaytirish (intensivlik) asosan predmet va harakat belgilariga, harakatning o'ziga va so'zlovchining ruhiy holatiga, his-tuyg'usi bilan bog'liq bo'ladi. Shunga ko'ra, ravish va fe'l so'z turkumlariga oid so'zlar ma'no kuchaytirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ma'no kuchaytiruvchi morfemalar boshqa so'z turkumlarida ham, oz miqdorda bo'lsa-da, uchraydi. Ma'no kuchaytirishning **sintaktik usuli** gap qurilishi va so'z birikmalari orqali amalga oshiriladi. Bu usulning vositalari maxsus sintaktik ifodalar va qurilmalardir. Ma'no kuchaytirishning sintaktik usuli kommunikatsiyada ham, borliqqa subyektiv munosabat ifodalashda ham ko'p qo'llaniladi. Ushbu usullar yordamida intensivlikni hosil qilish o'zbek tilida ham mavjud bo'lib, ulardan morfologik usul faolroqdir.

III BOB. INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI INTENSIFIKATORLARNING TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI

3.1. Ingliz va o‘zbek tillaridagi intensifikatorlarning leksik – semantik va struktur jihatdan farqlari.

Intensivlik – bu emotsional-ekspressivlikni shakllantiruvchi semantik kategoriya. O‘zbek tilida emotsional-ekspressivlikni shakllantirish usullari, prof. S.G‘oyibov va boshqalar tomonidan yaratilgan “O‘zbek tili leksikologiyasi” o‘quv qo‘llanmasida quyidagilarga bo‘linadi:



Emotsional-ekspressivlikning leksik ifodalanishida stilistik bo‘yoq so‘zning o‘z negizida mavjud bo‘ladi. Bunday hollarda so‘zning leksik ma’nosida baholash elementi tabiiy ravishda paydo bo‘ladi, masalan: ziyrak, ayyor, xushro‘y.

O‘zbek tilida intensivlikni ifodalashda o‘zlik olmoshi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u "ta’kid" va "tegishlilik" ma’nosini anglatadi: Mening o‘zim bilaman. Shuningdek, "o‘xshatish" ma’nosi ham o‘z so‘zi orqali ifodalanadi: Onasining o‘zi.

Bundan tashqari, "umumiylik" va "noaniqlik" ma'nosini ham o'zlik olmoshi orqali ifodalash mumkin: O'zim (shunchaki).

Ingliz tilida o'zlik olmoshining intensivlik hosil qilishda ishlatilishi tilshunos E. Kyoning tomonidan o'rganilgan. Uning tadqiqotida intensifikatorlarning to'rtta turidan uchta o'zlik olmoshi bilan ifodalanadi.

Mrs.Dalloway wanted to buy the flowers herself.(alone)

Dallovay xonim ***o'zigina (yolg'iz o'zi)*** gullarni sotib olishni hohlagandi.

Yuqoridagi gap tarjimasini tahlil qilamiz.

Ingliz tilidagi gapda **herself** o'zlik olmoshi intensifikator vazifasida kelib, intensivlikni ifodalayapti. O'zbek tilida uning ekvivalenti **o'zi** o'zlik olmoshi **"gina"** kuchaytiruv yuklamasi yordamida gap ta'sirchanligini hosil qilmoqda.

U o'zidan o'zi (to'satdan) tutoqib ketdi.

Bu misolimizda o'zlik olmoshi takroriy shaklda emotsional holatni ifodalab, intensivlikni yuzaga keltirmoqda. O'zlik olmoshi tahlilidan shu narsa ayon bo'ldiki, o'zbek tilida intensifikator termini hali qo'llanmagan bo'lsada, uni ifodalashga yetarli imkoniyatlar majud. Hatto ularni tizimli ravishda guruhlariga ajratib o'rganish lozim deb hisoblaymiz.

Emotsional-ekspressiv bo'yoqdor leksika odatda oddiy so'zlashuv nutqida (valakisalang, valdirvasar, sang'i jinni kabi) yoki kitobiy-poetik, tantanavor nutqda qo'llanadi (umumbashariy, hayratomuz, daho, porloq, rahnamo, parisiymo kabilar).

Bu hodisa ingliz tilida ham mavjud: angle, fair.

So'zlashuv leksikasiga oid emotsional-ekspressiv leksika kitobiy leksikaga oid emotsional-ekspressiv leksikaga qaraganda pastroq stilistik bo'yoqqa ega bo'ladi. Umumiste'moldagi

soʻzlar esa ekspressiv boʻyoqqa ega emaslar, shu jihatdan ular neytral leksikani tashkil etadi.

Emotsional-ekspressiv boʻyoqning soʻzni metaforik qoʻllash natijasida ifodalanishi.

Tilda atash maʼnosida stilistik boʻyoqdan xoli boʻlgan, lekin koʻchma maʼnoda yorqin emotsional-ekspressiv boʻyoq kasb etuvchi juda koʻp soʻzlar mavjud. Metafora bunday stilistik boʻyoqlarni hosil qilishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

